

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDADI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI
K A F E D R A S I**

**5141600 – “Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy
ish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun IV «B» guruh talabasi**

**MAHKAMOVA DILFUZAXONNING
“TO‘RTINCHI SINF ONA TILI DARSLARIDA
O‘QUVCHILARNI REJA TUZISHGA O‘RGATISH
METODIKASI” MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Z.Isaqov,
dotsent**

Q O ‘ Q O N – 2 0 1 2

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi IV «B» guruh talabasi
Mahkamova Dilfuzaxonning “To‘rtinchi sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni reja tuzishga o‘rgatish metodikasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

H A Q I D A

Talaba bitiruv malakaviy ish mavzusini reja asosida bayon eta olgan. Ishni bayon etishda fikrlar ketma-ketligiga rioya qilgan, tadqiqot yuzasidan to‘g‘ri xulosalar chiqargan va umumiy xulosalar bergan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan maqsadli foydalanilgan, ko‘chirmalar o‘rinli berilgan.

Ishning umumiy tavsif qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi mazmunli ochilgan.

Ishning birinchi bobida boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalari, boshlang‘ich sinflarda reja asosida hikoyalash turlari va ularni tashkillash usullari haqidagi nazariy fikrlar mazmunli yoritilgan.

Ikkinchi bobda boshlang‘ich sinflarda reja asosida hikoyalashni bog‘lanishli nutq o‘stirish darslarida uyushtirish, ona tili darslarida reja tuzishga o‘rgatish orqali ta‘limning interfaol usullaridan foydalanish yo‘llari, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida gap bo‘laklari haqida bilim berish darslarida reja tuzishga o‘rgatish, ona tili darslarida adabiy ta‘lim materiallari asosida reja tuzishga o‘rgatish yo‘riqlari va ishlash metodlari ancha keng yoritilgan.

Xulosa qismida boshlang‘ich sinflarda reja tuzishga o‘rgatish orqali ta‘limning interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini oshirish omili ekanligi yoritilgan.

Ko‘chirmalar asosli dalillangan, nazariy fikrlar amaliy ishlar bilan asosli yoritilgan. Ishning mazmun va shakli talablar darajasida. Biroq, ishni diqqat bilan kuzatganimizda, ishning ayrim o‘rinlarida ba‘zi imloviy, qo‘pol bo‘lmagan uslubiy va tinish belgilariga oid kamchiliklar uchradi.

Ishdagi bu yetishmovchiliklar bitiruv malakaviy ishning mazmuniga katta ta‘sir qilmasligini hisobga olib, ish oliy maktab talablariga mosligiga asoslanib, BMIning himoyaga tavsiya etaman.

Ish rahbari:

Z.Isaqov,

BTM kafedrası dotsenti.

5- aprel 2012- yil.

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi IV «B» guruh talabasi
Mahkamova Dilduzaxonning “To‘rtinchi sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni reja tuzishga o‘rgatish metodikasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba “To‘rtinchi sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni reja tuzishga o‘rgatish metodikasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos reja tuzib shu asosda ishni kirish, ikki asosiy bob, xulosa va maqsadli foydalanilgan adabiyotlar bilan mazmunli bayon eta olgan. Ishning asosiy bobi bayonida mustaqil fikrlar bilan birgalikda tajribali metodistlarning shu mavzuga oid fikrlari asosli keltirilib, ishda chiroyli dalillangan, ko‘chirmalarga shaxsiy baho ham o‘rinli berilgan.

Ishning umumiy tavsif qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi yetarlicha yoritilgan.

Tadqiqotning birinchi bobida boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalari, DTSda fan oldiga qo‘yilgan talablar keltirilgan, ona tili vaqt me‘yorlariga ajratilgan fikrlar ham o‘z o‘rni bilan keltirilib, ishning mazmunini yoritishga asos bo‘lishga xizmat qilgan.

Ishning ikkinchi bobida boshlang‘ich sinflarda reja asosida hikoyalashni tashkillash yo‘llari “Gapning bosh bo‘laklari”, “Gapning uyushiq bo‘laklari”, “Undalma” mavzularini o‘tishda va o‘qish materiallari asosida bu vazifalarni bajarishda olib boriladigan amaliy ishlar tafsiloti bilan yoritilgan.

Ishning so‘ngida keltirilgan xulosa ham fikrlarni jamlab, tavsilotlarni berishga xizmat qila olgan.

Ishni yoritishda mazmuniy va shakliy birlikka rioya etishga harakat qilingan, mustaqil fikrlar ishni tiklay olgan. Ammo, ishning ba‘zi joylarida imloviy, uslubiy va tinish belgilariga oid ayrim kamchiliklar uchraydi.

Bitiruv malakaviy ish oliy maktab talablariga mosligiga asoslanib, uni ijobiy baholash va himoyaga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi:

R.Shukurov,

O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.
15- may 2012- yil.

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

I.A.Karimov

TO'RTINCHI SINFL ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI REJA TUZISHGA O'RGATISH METODIKASI

M U N D A R I J A

Ishning umumiy tavsifi.....	4
I. BOB. Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitishning dolzarb vazifalari. Kirish.	7
1-§. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi...	9
2-§. Boshlang'ich sinflar DTSda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalari haqida.....	12
3-§. To'rtinchi sinf ona tili darsligidagi mavzular va ularga ajratilgan vaqt me'yorlari.....	18
II. BOB. To'rtinchi sinf ona tili darslarida reja tuzishga o'rgatish metodikasi.	23
1-§. To'rtinchi sinf ona tili darslarida matn rejasini tuzishning o'ziga xos xususiyatlari.....	
2-§. To'rtinchi sinf ona tili darslarida "Gapning bosh bo'laklari" mavzusini o'tishda reja tuzishga o'rgatish.....	33
3-§. To'rtinchi sinf ona tili darslarida "Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusini o'tishda reja asosida ish olib borish.....	45
4-§. To'rtinchi sinf ona tili darslarida "Undalma" mavzusini o'tishda reja tuzish metodikasi.....	52
5-§. To'rtinchi sinf ona tili darslarida o'qish darslari materiallari bilan ishlashda reja tuzishga o'rgatish yo'llari.....	55
Xulosa. To'rtinchi sinf ona tili darslarida reja tuzishga o'rgatishning ma'naviy-axloqiy xususiyatlari.....	59
Foydalanilgan adabiyotlar.....	62

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Hayot insonga ato etilgan eng buyuk ne'matdir. Bu ne'matdan qanday bahra olish esa odamzotning intilishlari, orzu-niyatlariga bog'liq. Uni jonli mavjudotlardan farqi ongi va fikrlay olish qobiliyati hisoblanadi. Shu boisdan ham inson butun umri davomida izlanadi, barkamollikka intilib yashaydi. Dunyodagi har bir millat hayotbaxsh an'alarini saqlab qolishga, o'zligini, ishonch e'tiqodini mustahkamlashga intiladi. Barkamollik esa yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga quvvat berib, uni komillik sari eltuvchi ko'priksanalaradi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: «Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi». Darhaqiqat, ma'naviyat va uni shakllantiruvchi mezonlar, yoshlarda ma'naviy axloqiy tarbiya masalasiga davlat siyosatining muhim yo'nalishi, ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, yoshlarda mafkuraviy immunitet hosil qilish, turli xil diniy oqimlarga qarshi g'oya bilan kurasha olish kabi ko'nikmani qaror toptirish hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sanalaradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ustida muntazam ish olib borish juda muhim ishdir. Maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatini va orfografik savodligini oshirishda grammatik bilimlarga asoslanadi. O'quvchi adabiy tilning qonun-qoidalarini o'rganib olgandan so'ng, uni turli orfografik, punktuatsion va nutq o'stirishga oid mashqlar orqali mustahkamlay borib, o'z fikrini to'g'ri ifodalash (yozma va og'zaki) malakasini hosil qiladi, bu esa boshqalarning fikrini to'g'ri tushinishga ham imkon beradi.

O'quvchilar nutqidagi xatolarning ko'pi imloni ongli bilmasligidan kelib chiqadi. Maktabda umumiy madaniyatning bir ko'rinishi hisoblangan nutq madaniyati, asosan, grammatika va grammatik mashqlar asosida egallanadi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarni o'z fikrini qisqa, ixcham ifodalashga, oz so'z

bilan ko‘p fikr anglatishga o‘rgatish kerak. Bu ishlarni amalga oshirishning asosiy tayanchlaridan biri grammatika o‘qitishdir. Grammatikaga oid bilimlar berishda reja tuzishga o‘rgatish ham eng asosiy ishlardan sanaladi. Ishimizga dolzarb masala qilib ona tili darslarida o‘quvchilarini reja tuzishga o‘rgatish yo‘llari yuzasidan bilimlar berishni tanlashimiz ham bejiz emas, negaki o‘quvchilar imlosi va nutqini to‘g‘ri shakllantirishda bog‘lanishli nutq o‘stirish ustida olib boriladigan amaliy ishlarning ahamiyati bag‘oyat kattadir.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Munozaraga tashlanayotgan muammo – ona tili darslarida o‘quvchilarini reja tuzishga o‘rgatish yo‘llari yuzasidan atroflicha ishlar qilingan, nazariy va amaliy tavsiyalar berilgan bo‘lsa ham, ammo quyi sinflarda bu ishlar ustida ishlash yuzasidan deyarli nazariy-amaliy ishlarga juda kam qo‘l urilgan. SHu sababli bu mavzuga doir aytadigan juda ko‘plab o‘ylab yurgan mulohazalarni o‘rtaga tashlamoqchimiz.

Ishning maqsad va vazifalari.

Malakaviy ishimizning maqsadi:

To‘rtinchi sinf ona tili darslarida o‘quvchilarini reja tuzishga o‘rgatish yo‘llari yuzasidan nazariy va amaliy tavsiyalar berish.

BMI oldiga qo‘yilgan vazifalar:

- boshlang‘ich sinfda ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalarini belgilab olish;
- boshlang‘ich sinflarda reja asosida hikoyalashni o‘tkazish yo‘llarini tahlil etish;
- boshlang‘ich sinf ona tili darslarida reja asosida hikoyalashni o‘tkazish orqali ta’limning zamonaviy usullaridan foydalanish yo‘llarini taklif etish;
- boshlang‘ich sinf ona tili darslarida reja asosida hikoyalashni o‘tkazishning ma’naviy-axloqiy ahamiyatini belgilash.

Ishning ilmiy yangiligi. To‘rtinchi sinf ona tili darslarida o‘quvchilarini reja tuzishga o‘rgatish yo‘llarini amalga oshirish orqali ta’limning interfaol usullaridan foydalanishning biz ishlab chiqqan yo‘riqlarini tavsiya qilish, tilning jozibali va

ta'sirchan tomonlarini to'g'ri hamda o'rinli ishlatish malakalarini hosil qilish yo'llarini taklif etish.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. To'rtinchi sinf ona tili darslarida o'quvchilarini reja tuzishga o'rgatish yo'llarini amalga oshirish bilan ta'limning interfaol usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning savodxonligini oshirish, to'g'ri talaffuzga oid bilimlar berish ustida nazariy ma'lumotlarni keng va atroflicha o'rta tashlash, bu ma'lumotlardan hozirgi o'qitish sistemamiz uchun amaliy ishlarga tatbiq qilinadi. Ish materiallaridan boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi va talaba tanlov fanlari mashg'ulotlarida nazariy material sifatida foydalanish mumkin. Ishdan amaliy jihatdan o'rta maktabning boshlang'ich ta'limida va pedagogika institutlarining tegishli bo'limlari talabalari bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi loyihalari uchun material sifatida hamda malakaviy amaliyoti davomida amaliy foydalanishlari mumkin.

Ishning sinalishi va natijalarining ommalashtirilishi. Ish amaliy jihatdan 2011/2012 o'quv yilining fevral – may oylarida o'tkazilgan bitiruv malakaviy amaliyoti davrida boshlang'ich sinf ona tili darslarida sinovdan o'tkazilgan, boshlang'ich ta'lim murabbiylari tomonidan ijobiy baholangan, shu sababli ishni keng miqyosda ommalashtirish o'qitishdagi muammolarni ijobiy echishga yordam beradi.

Ishning tuzilish va umumiy hajmi. BMI ishning umumiy tavsifi, ikki asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi – 63 sahifa.

I. BOB. Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitishning dolzarb vazifalari.

KIRISH

Jamiyatning taraqqiyoti sog'lom aqlga muvofiq yo'nalishga tushuvi bilan unda inson omilining salmog'i inson omilining oshuvi esa bu jamiyatda ma'naviy qadriyatlarga e'tibor kuchayishiga olib keladi. Ma'naviy qadriyatlar ustivor bo'lgan jamiyat chin taraqqiyot yo'liga tushgan hisoblanadi. Mustaqillikka erishgan mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlarga e'tiborning benihoya ortib borishi shu ma'noda tabiiy holdir. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning tub o'zgarishlarga yuz tutishi jamiyat a'zolarining ongi keskin evrilishlar bo'lishiga olib keldi. Milliy tafakkurdagi yangilanish ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga da'vat etilgan muassasalar ishida ham tub burilishlar bo'lishini taqozo etadi.

Maktab ta'limi jamiyat ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda eng ko'p ishtirok etadigan faoliyat turi bo'lganligi uchun ham mustaqillikka erishilgandan buyon uni yangilangan sharoit talabiga muvofiq uyushtirish, sog'lom mantiqqa to'g'ri keladigan tarzda tashkil qilishga urinish kuchayganligi va mazkur muammo bilan mutaxassislar va mutassaddi bo'lgan idoralarning xodimlarigina emas, balki jamiyat faol a'zolarining ko'pchiligi bevosita shug'ullanishga urinayotganliklari tabiiy holdir.

Ta'limni yangilash ishini, umuman, pedagogik fikrda qanday o'zgarishlar ro'y berganligini hisobga olmay turib amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun ham istiqloлга erishgan millatning pedagogikasiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni aniqlash, bu fanning taraqqiyot tamoyillarini belgilash va bu jarayonda jahon tarbiyashunosligidan uzilib, biqiq milliy amaliyot xulosalari asosida faoliyat ko'rsatish xavfidan ham, ayni vaqtda, milliy xususiyatlarni hisobga olmaslikday g'ayriilmiy holatdan ham saqlanib qola bilish yo'llarini ko'rsatish va nazariy jihatdan asoslash ehtiyoji tug'iladi.

Milliy ildizlarga tayangan, yangilangan tafakkur mahsuli bo'lmish pedagogika fani asosida ta'lim qay yo'sinda yo'lga qo'yilishi zarurligini belgilash

katta nazariy va salmoqli amaliy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy sharoitning, pedagogika ilmining tubdan o'zgarishi ona tili o'qitishda ham sifat jihatidan yangilanish bo'lishini taqozo qiladi. Ta'lim mohiyatidagi sifat o'zgarishlarining ilmiy-nazariy asoslari nimalardan iboratligini tadqiq etish ona tili o'qitish metodikasi ilmi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Negaki yangilanayotgan ilmning umumnazariy jihatlari to'g'ri va sog'lom mantiqqa muvofiq hal etilmay turib, uning xususiy muammolarini hal qilishga urinish poydevorsiz imorat qurishday samarasizdir. Ona tili o'qitish haqidagi bitiruv malakaviy ishimiz ham yangilanayotgan pedagogika ilmida, ham ona tili ta'lim metodikasi fanida ro'y bergan, berayotgan va bo'lishi kutilayotgan o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan umumlashtirish va pedagogik tajribaga tayangan holda amaliy jihatdan tatbiq qilishni asoslash samarasi o'laroq vujudga keldi. To'g'ri, shu vaqtga qadar ham maktabda ona tili o'qitishning nazariy masalalari turli kitoblar va ilmiy tadqiqotlarning ob'ekti bo'lgan edi. Lekin ularda ona tili ta'limning xususiy muammolarini hal qilishga ko'proq e'tibor qaratilar, ona tili ta'limning umumnazariy jihatlari esa har tomonlama o'rganilmagan edi. Holbuki, muayyan bir fanning umumnazariy asoslari to'liq ishlanmay turib, uning xususiy masalalarini to'g'ri hal etish aslo mumkin emas.

Ona tili ta'limning umumnazariy muammolari puxta ishlanmaganligi uchun maktabda ona tili o'qitishning maqsadi, vazifasi, mazmuni singari tushunchalarning belgilari hanuzgacha uzil-kesil aniqlab olingani yo'q. Ushbu ishimizda ayni shu masalalarga alohida e'tibor qilingan va bu muammolar atroflicha tadqiq etilgan.

Ona tili o'qitish ishi shu vaqtga qadar sinfiy, ijtimoiy, g'oyaviy nuqtai nazar bilan tadqiq etilib kelindi. Endilikda unga sof badiiy-estetik va ma'naviy-pedagogik jihatdan yondashish tamoyillarini belgilash mavridi keldi.

1-§. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi

Ona tilining barcha tomonlari o'zaro bog'lanishda bo'ladi, bu esa uning aloqa vositasida namoyon bo'ladi. Nutq gaplardan, gaplar so'zlardan, so'zlar esa tovushlardan tashkil topadi. So'zning tovush qurilishi mazmunsiz o'zicha yashay olmaydi. Istalgan tovushlar yig'indisi emas, balki ma'lum ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisigina aloqa maqsadiga xizmat qiladi. So'zning o'zigina fikrni ifodalay olmaydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun o'zlari bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanishi zarur. Shundagina gap tuziladi, gap orqali fikr ifodalanadi. Demak, tilshunoslik fani bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar mavjuddir. Fonetika leksikologiya bilan ham grammatika bilan ham bog'lanadi.

Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi. Xuddi shuningdek fonetika sintaksis bilan ham bog'lanadi, xususan, har bir gapda ma'lum ohang bo'lishida ko'rinadi. Leksikologiya so'z yasalihi bilan bog'lanadi:

1. Tilning lug'at tarkibi yangi so'zlar yasalihi hisobiga boyib boradi.

2. Yasalgan so'zlar yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi. Masalan, paxta-kor, paxta-zor

Morfologiya leksikologiya va so'z yasalihi bilan bog'langan. Morfologiya so'zning grammatik xususiyatini o'rganadi. So'zning grammatik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, morfologiya va sintaksis ham o'zaro bog'lanadi. Bu munosabat "Biz ilm cho'qqilarini qunt bilan egallamoqdamiz" gapi asosida ko'rsatib beriladi. Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadi.

1. Tilning barcha tomonlari o'zaro bog'liqligini va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanliklarini hisobga olib, o'quvchilar tilni ongli o'zlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni, xususiyatlari va ular o'rtasidagi bog'lanishni o'zlashtirishlari zarur.

2. Tilning barcha tomonlarining bir-biriga ta'siri uning aloqa vositasi ekanligida nomoyon bo'ladi: so'zlar to'g'ri talaffuz qilinishi yoki yozilishi, barchaga tushunarli bo'lishi, gap grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi kerak. Boshlang'ich sinf ona tili dasturlarida ham yuqoridagi xulosalarga amal qilingan. Dasturning "Tovushlar va harflar" bo'limi tahlil qilib ko'rsatiladi.

Hozirgi kunda maktabning asosiy vazifasi har tomonlama etuk insonlarni tarbiyalashdir. Bu vazifani bajarishda ona gili predmeti o'ziga xos o'rin tutadi. O'zbek tilini o'rganish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik, to'g'ri, uslubiy aniq, mazmuniy matonaviyaga rioya qilgan holda ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'zbek tilidan berilgan bilimlar mazmuni boshlang'ich sinflar dasturida aks ettirilgan (talabalar dastur mazmunini eslaydilar.).

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalarni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Chunonchi, tahlil, tarkib, umumlashtirish, taqqoslash va boshqalar. O'zbek tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar ham bir-biridan ajratilmagan holda, o'quv tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Yuqorida boshlang'ich sinflarda til fanining barcha bo'limlari o'zaro bog'liq holda o'rganilishi haqida fikr bildirdik. 1-4-sinflarda fonetika leksika, grammatika, so'z yasalishi va nutq o'stirish haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday ko'rinishi tilning barcha tomonlarini bir biriga o'zaro ta'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganilishni taqazo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'lim jarayonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini hal etilishiga yo'naltirish imkonini beradi.

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgaralar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili

ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchining ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'qish texnikasi bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini, talaffuzda ifodalash ko'nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni berilgan matndan minutiga nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi belgilangan. Sinf dan sinfga o'tish, miqdoriy ko'rsatkichdagi belgilar soni oshishi bilan birga, berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn mazmunini anglash, o'zgalar nutqini eshitish va fikrini anglash malakasi o'quvchining og'zaki bayon qilayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametrning ko'rsatkichlari o'quvchi 1 minutda qancha sahifa matnni o'qishi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);

- tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- imloviy (yozma) savodxonlik.

Mazkur standart mezonlarining oʻzaro uzviy bogʻliqligi (integratsiyasi)ni nazarda tutib, oʻqish, ona tili taʼlimida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi.

2-§. Boshlangʻich sinflar DTSda ona tili oʻqitishning maqsad va vazifalari haqida

Boshlangʻich taʼlimda ona tili taʼlimi mazmunining negizi quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- gap va nutq, nutq tovushlari, ona tilining fonetik tizimi (fonetik tahlil – unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undoshlar), tovushlar va harflar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi;

- boʻgʻin va boʻgʻin tuzilishi, soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirish;

- soʻz va soʻz maʼnolari (lugʻaviy tahlil – bir maʼnoli soʻzlar, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar, koʻp maʼnoli soʻzlar);

- soʻz tarkibi: oʻzak va qoʻshimcha (turlovchi va yasovchi), oʻzaklarda tovush oʻzgarishi, bir necha shakldagi qoʻshimchalar (oʻzak va qoʻshimchalar imlosi);

- soʻz – nomlash mazmuniga koʻra guruhlash: predmetlar nomini bildiruvchi soʻzlar, predmetlarning harakatini, belgisini, sanogʻini bildiruvchi soʻzlar, predmetga ishorani ifodalovchi soʻzlar (shaxsga nisbatan – kishilik olmoshi);

- gap, gapning fikr bildirish maqsadiga koʻra turlari (darak, soʻroq, buyruq va his-hayajonni bildiruvchi gaplar), gapda tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, soʻroq, undov va h.k.), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar : vergul, qavs, ikki nuqta, koʻp nuqta;

- gapning tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi boʻlaklar (ega va kesim), asosiy mazmunini toʻldiruvchi boʻlaklar (ikkinchi darajali boʻlaklar – ularning turi va nomlaridan mustasno);

- gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi, soʻzlar birikmasi (ega va kesim munosabatidan mustasno), gapning uyushiq boʻlaklari, ularning oʻzaro bogʻlanishi (ohang, bogʻlovchi soʻz yordamida);

- gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xatboshi, dialog, monolog gaplar, bayon, kichik insho, ogʻzaki, yozma ijodiyot;

- xabar, xat, maqola, tabriknoma, taklifnoma, eʼlon yozish, roʻyxat tuzish.

- alifbe davrida kitob bilan ishlash koʻnikmasini hosil qilish;

- soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish;

- boʻgʻinlab oʻqishdan ongʻli, sidiqʻasiga, tez, toʻgʻri, ravon va ifodali oʻqishga erishish;

- kichik hajmli bir necha sheʼrni yod olish;

- 2-3- sinflarda yozuvchilarning ismi-sharifi, asarlarining nomlari haqida toʻlaroq tushuncha hosil qilish;

- badiiy asarlarni sharhli, ijodiy va ifodali oʻqish;

- asar syujeti voqealari oʻrtasidagi bogʻlanishni, qahramonlarning feʼl-atvorlarini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;

- oʻqigan asarlari yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini ogʻzaki va yozma tarzda izchil ifodalash;

- soʻz boyligini oshira borish va nutqida faol qoʻllash;

- 4- sinfda oʻqigan asarlari yuzasidan mustaqil reja tuzish;

- badiiy asarlarni estetik tahlil qilish;

- oʻqigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish;

- nasriy asar mazmunini toʻliq, qisqartirib, shaxsini oʻzgartirib hikoyalash;

- badiiy asarlarni oʻzaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish.

4- sinf

Oʻqish texnikasi

Miqdoriy koʻrsatkich: minutiga 80-90 soʻz.

Talablar:

- a) soʻz va iboralarni toʻgʻri, obrazli oʻqiy olish;
- b) gap ohangiga rioya qilgan holda ravon oʻqish;
- v) gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish;
- g) sanash va ajratish ohanglaridan toʻgʻri foydalanish;
- d) ohangga rioya qilish;
- e) ilmiy atamalarni toʻgʻri talaffuz qilish.

j) 20 ta sheʼrni yoddan bilishlari, ertak, maqol, tez aytish, topishmoq, qoʻshiq, alla, hikoya, qissa kabilar haqida taʼrif bera olishlari lozim.

Matnning xarakteri: til jihatdan ravon, nasriy-nazmiy bolalar adabiyoti hamda xalq ogʻzaki ijodi namunalari.

Oʻzgalar fikri va matn mazmunini anglash malakasi

Miqdoriy koʻrsatkich: 10 minutda 4-5 sahifa.

Talab:

Ogʻzaki nutqning toʻgʻri, ravon va taʼsirchan boʻlishi, monologik nutqning ravonligi, dialogik nutqda oʻzaro muloqotning taʼsirchanligi, izchilligi, mantiqiy jihatdan aniqligi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Miqdoriy koʻrsatkich: 75-80 soʻzdan iborat diktant yoza olish.

talablar:

- a) imlo-xatolarga yoʻl qoʻymaslik;
- b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;

Diktant turlari: saylanma diktant, lugʻat diktanti, taʼkidiy diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktant, izohli diktant, koʻrsatkich diktant.

Miqdoriy koʻrsatkich: 5-6 gapdan iborat boʻlgan matn (fikir ehtiyoji bilan bogʻliq mavzu asosida) yaratish.

Talablar:

- a) matndagi gaplarning mazmunan oʻzaro bogʻliqligi va aloqadorligi, mavzu doirasida birlashishi;
- b) matnda xatboshining yaxlitligi va fikr izchilligini taʼminlash;

d) uyadosh soʻzlardan (gul: atirgul, raʼnogul, binafsha, lola) foydalana olish.

Matnning xarakteri: xotira asosida manzara, voqea-hodisa, narsa-buyum, joy, kinofilm va hokazolarning tasviri, kichik insho, xat-xabar.

Boshlangʻich sinf oʻquv dasturida 4-sinf ona tili darslarida egallanadigan bilimlar darajasi quyidagicha belgilanadi¹.

Nutq, matn va gapni farqlash. Ogʻzaki va yozma nutqni toʻgʻri shakllantirish. Matn mazmunini qayta hikoyalatish. Matndagi asosiy fikrni aniqlay olish. Matnning tuzilishini aniqlash, uni qismlarga ajratish, ular orasidagi bogʻlanishni izohlay olish. Matnga sarlavha topish.

Taʼlimiy bayon. Berilgan matn asosida hikoya yozish; muhokama va tasvir janri elementlari qatnashgan bayon yozish. Matnni qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozish. Tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozish.

Taʼlimiy insho. Qismli (qismlarga ajratib berilgan) rasmlar va mavzular bitta rasmda ifoda etilgan koʻrinish asosida, shuningdek, oʻqilgan, kuzatilgan, eshitilgan, koʻrilgan voqea va hodisalar asosida material toʻplash, reja va shu asosida insho yozish. Bayon va insho rejalarini tuzishda oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga yoʻllash.

Oʻquv yili davomida oʻrganiladigan imlosi qiyin soʻzlar: agronom, akvarium, antenna, artist, astoydil, atele, avtomobil, avtonazoratchi, bashariyat, binafsha, boychechak, brigada, daromad, dastyor, dastlab, dehqon, depo, dirijyor, dollar, domino, doʻkon, ehtiyoj, ehtiyot, ekskavator, eskalator, eʼzozlamoq, fabrika, faoliyat, faxrlanmoq, ferma, festival, firma, fonarcha, futbol gavjum, giyoh, gramm, goʻsht, hadya etmoq, handalak, haqiqat, harbiy, hayvonot, hasharot hikoya, hofiz, hudud (chegara), hunarmand, hunarmandchilik, hurriyat, ikkita, ilm-maʼrifat, isteʼdodli, ishonch jarroh jahon, jayron, jonivor, kasseta, kilogramm, kilovatt, kofe, kolleksiya, kosmonavt, kungaboqar, koʻhna (qadimgi), laʼl (qimmatbaho tosh), leytenant, madhiya, majmua, masjid, mavsum,

¹ Boshlangʻich taʼlim oʻquv dasturi. Toshkent, 2008.

mayor, mehnatsevar, mehribon, mehr-oqibat, metall, metro, me'mor, militsioner, muhandis, murojaat qilmoq, muvaffaqiyat, mo'jiza, na'matak, ne'mat, nomzod, nota, ohangrabo, oromgoh, parashyut, patent, payvandlamok, piyola, pomidor, portfel, projektor, pulemyot, qahramon, qandil (lyustra), qimmatbaho, qumursqa, rassom (musavvir), rostgo'y, ruhlanmoq, sabzavot, samolyot, samovar, sellofan, sentner, seyalka, sport, suxandon (diktor), tabiat, tanaffus, tashakkur, taassurot, telefon, tennis, termos, tramvay, transport, trolleybus, ufq, urf-odat, vagon, velosiped, vokzal, voleybol, xursand, xayrlashmoq, xiyobon, xizmatchi, xohlamoq, xokkey, yelpig'ich, yiroq (uzoq), yop-yorug', zehnli, ziyrak, zog'orabaliq, zag'cha, o'qariq, o'chirg'ich, g'amxo'r, g'ijjak, g'ilof, g'o'zapoya, shaxmatchi, shifer, charm, choyshab, cho'tka. (Bu xildagi so'zlar darslikning oxirida lug'at sifatida berilgan).

IV sinf o'quvchisining bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar:

Bilishi kerak.

— Gap, gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar, uyushiq bo'laklar, undalmalarni;

—tovush va harf, uning belgilarini, unli va undosh tovushlarni, jarangli-jarangsiz undoshlarni, bo'g'in, alifboni;

—o'zak, o'zakkosh so'zlar, so'z yasovchi qo'shimchalar, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar;

—so'z turkumlari, ularning belgilarini.

Ko'nikmalarni egallashlari kerak.

- ot, otlarning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi;
- kelishik qo'shimchalarining talaffuzi va imlosi;
- sifat, sifatlarning imlosi;
- son, sanoq va tartib sonlarni, raqamlar bilan ifodalangan tartib sonlar imlosini;
- olmosh, kelishik olmoshlarining kelishiklar bilan qo'llanilishini;

- fe'l, fe'l zamonlarini (o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon);
- fe'l zamon qo'shimchalari, ularning imlosi;
- fe'llarning tuslanishini;
- gap bo'laklarini; bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni farqlay olish;
- otlarni kelishik qo'shimchalari bilan qo'llay olishini;
- sifatlarning yozilishini, qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yozishni;
- sonlarning, tartib sonlarning yozilishini;
- fe'llarning uch zamoni va ularning hosil qilinishini; shaxs- songa tuslanishini.

Malakani egallashi kerak:

- gaplarning elementar sintaktik tahlil qilish;
- o'rganilgan qoidallarga oid 70-80 so'zli matnni husnixat qoidalariga rioya qilgan holda ko'chirib va eshitib yoza olishi;
- berilgan matnga mustaqil reja tuzish, qayta hikoyalash va yozma bayon qilish;
- berilgan mavzu yoki rasm asosida kichik matn tuzib, yoza olish;
- e'lon, tabriknoma, taklifnoma yoza olish;
- quyidagi ma'daniyat: iltimos, ruxsat, minnatdorchilik, kechirim, uzr, taklif kabilarni ifodalaydigan so'zlardan foydalanish.

Uddalay olishi kerak:

- kesma uzunligini chizg'ich yordamida o'lchash, kesma uzunligini santimetrlarda, detsimetrlarda, detsimetr va santimetrlarda yozishni;
- chizg'ich yordamida berilgan uzunlikdagi kesmani chizishni;
- rasmlardan, modellardan, atrofdagi narsalardan eng sodda geometrik shakllar – uchburchak, doira, kvadrat, ko'pburchak, kesmalarni topa olishi; bu shakllarni bir-biridan farqlashni;
- qismlardan geometrik shakllarni tuzishni, shakllarni qismlarga ajratishni.

3-§. To‘rtinchi sinf ona tili darsligidagi mavzular va ularga ajratilgan vaqt me‘yorlari

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi darslik sifatida tasdiqlagan to‘rtinchi sinf darsligi² vazirlikning darsliklar o‘rtasidagi tenderi g‘olibi bo‘lganligi sababli o‘n yildan ortiq qayta nashr etilib, darslik sifatida umumiy o‘rta ta’limning to‘rtinchi sinfi uchun darslik sifatida amalda qo‘llanib kelinmoqda. Darslik 192 bet bo‘lib, 475 mashqdan tuzilgan. O‘quv dasturi talabiga ko‘ra quyidagi bo‘limlar va mavzular 170 soat davomida darslik asosida o‘qitiladi.

Gap (6 soat). Gap, gapning maqsadga ko‘ra turlari, ularning turli, ma’no ifodalashi. Gapning his-hayajonni ifodalash xususiyati. Gapni tugallangan ohang bilan, buyruq, tinch va his-hayajon ohangida o‘qish. Gapning ohangiga ko‘ra tinish belgilarini qo‘llash (nuqta, so‘roq, undov belgilari). Gap tuzishga doir mashqlar: so‘zlarni o‘zaro bog‘lab gap tuzish. So‘zlarni o‘rnida qo‘llab gap tuzish, gapda noo‘rin qo‘llangan so‘z va gaplarni aniqlab, gapni qayta tuzish, tayanch so‘z ishtirokida gap tuzish, gapni ijodiy davom ettirish, gapning bir turidan boshqa turini hosil qilish, rasm asosida gap tuzish, chizmalar asosida gap tuzish.

Gap bo‘laklari (7 soat). Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar, so‘roqlar yordamida gap bo‘laklarini aniqlash, gapda so‘zlarning bog‘lanishini aniqlash va qaysi grammatik vositalar yordamida bog‘langanini izohlash:

a) ohang yordamida bog‘lanish (masalan, katta bino, a’lo o‘qing, ikki qadam kabi);

b) so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar yordamida bog‘lanish (masalan, hikoyani o‘qimoq, daraxtning bargi, senga aytmochiman kabi).

Ikkinchi darajali bo‘laklar ishtirok etgan gapni bosh bo‘lakli gapga aylantirish, ega-kesimdan iborat gaplarga ikkinchi darajali bo‘lak qo‘shib yozish, ularning mazmundagi farqini izohlash.

² G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shermatova U. To‘rtinchi sinfda ona tili darslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009. 192 b.

Uyushiq bo‘lakli gap (11 soat). Gapda bir bo‘lakning birdan ortiq qo‘llanishi – uyushiq bo‘laklar. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning uyushib kelishi. Uyushiq bo‘lakli gaplarni sanash ohangi bilan o‘qish. Uyushiq bo‘laklarning bog‘lanishi:

- 1) sanash ohangi yordamida;
- 2) va, ammo, lekin, biroq so‘zlari yordamida.

Gapni qayta tuzish mashqlari: ikki gapdan uyushiq bo‘lakli bir gap hosil qilish.

Uyushiq bo‘lakli gaplarda vergulning ishlatilishi.

Undalma (6 soat). Undalma so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs ekanligi. Bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanishi, uning o‘ziga xos xususiyati: gap tarkibida gap bo‘lagi vazifasini bajarmasligi, gapda boshqa bo‘laklar bilan bog‘lanmasligi, o‘ziga xos undash, chaqirish ohangi bilan aytilishi, gapning boshida, oxirida, o‘rtasida qo‘llanishi. Undalma qatnashgan gaplarda undash yoki chaqirish ohangining kuchli yoki kuchsizligiga qarab, undalmadan so‘ng vergul yoki undov belgisining qo‘yilishi.

Amaliy jihatdan nutqda undalmani o‘rinli qo‘llash, undan to‘g‘ri foydalanishga e‘tibor berish: nutq (gap) tarkibida qo‘llangan undalmalarni aniqlay olish, mazmuniga ko‘ra ularni undash yoki chaqirish ohangi bilan o‘qish. Undalma bilan boshqa bo‘laklar orasiga qo‘yilgan vergulni, undov belgisini aniqlab, izohlay olish.

Gapdan undalmalarni tushirib o‘qish, mazmunidagi o‘zgarishni izohlash. Gapda undalma qo‘shib o‘qish, gap mazmunini izohlash.

Nutq. Matn (5 soat). Matnning tuzilishi, bir kishining nutqi, ikki va undan ortiq kishining nutqi. Matnni gapdan farqlash. Matndagi asosiy fikrni aniqlash. Matn tuzish, uni ifodali o‘qishni mashq qilish, qayta hikoyalash, sarlavha.

Tovushlar va harflar (10 soat). Unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi. Talaffuzi va yozilishi farq qiladigan unli tovushli so‘zlarning talaffuzi va imlosi. Jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va yozilishi, ular orasidagi farqni

aniqlash. Bir xil qo'sh undoshli so'zlarning, so'z oxirida qator kelgan undoshli so'zlarning, x-h tovushli so'zlarning, tutuq belgili so'zlarning talaffuzi va imlosi. Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish, unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishi, so'zlarni bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chirish. So'zlarni bo'g'in-tovush va tovush-harf jihatdan tahlil qilish. Alifbo. So'zlarni alifbo tartibida qayta tuza olish. Alifboning ahamiyatini bilish. Yod olish, lug'atdan foydalanish malakasini shakllantirish.

So'z va so'z tarkibi (5 soat). So'z, uning tarkibiy qismi, o'zak va qo'shimchalar, qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlarini, so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar, so'z tarkibini aniqlashga oid mashqlar, o'zak va qo'shimchalarni aniqlash va tegishlicha belgilash.

Matndan o'zakdosh so'zlarni ajrata olish. Bir xil o'zakli so'zlar hosil qilish. So'z yasovchi qo'shimchalar, o'zakdosh so'zlarni hosil qilishni bilish, tilning rivojlanib, boyib borishi haqida elementar tushunchani shakllantirish.

So'z turkumlari (3 soat). Ot. Otning ma'no turlari, shaxs otlari, narsa otlari, joy otlari. Kim?, nima?, qaer? so'roqlaridan biriga javob bo'lishi. Otlarning bosh va kichik harflar bilan yozilishi. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi.

Sifat. Sifatning ma'no turlari va so'roqlari (qanday? qanaqa?). Sifatlarning otga bog'lanishi. Ikkinchi darajali bo'lak.

Son. Sonning necha?, qancha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lishi. Sonning otga bog'lanishi.

Fe'l. Fe'lning harakat bildirishi va so'roqlari (nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?). Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar. Ot, sifat va fe'lga doir o'zakdosh so'zlar tizimini tuzish.

SHu so'z turkumlari ichida uchraydigan ma'nodosh, qarama-qarshi ma'noli, bir xil shaklli, ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash. O'rganilgan yasovchilar yordamida bir turkumdan ikkinchi turkumga oid so'zlar hosil qilish.

Ot (40 soat). Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi.

Nutqda otlarning egalik qo'shimchalarini olgan va olmagan holda qo'llanishi. Egalik qo'shimchalarining unli va undoshdan keyin qo'shiladigan shakllari. Egalik qo'shimchasi qo'shilgan otlarning talaffuzi va imlosi.

Otning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi. Matnda va nutqda otlarning bir kelishikda bo'lishi. Kelishik qo'shimchali otlarning talaffuzi va imlosi. Kelishik qo'shimchali otlarni birikma tarzida yozish. Kelishik qo'shimchalarining otni otga, otni fe'lga bog'lashi.

Egalik va kelishik qo'shimchalarini chizmalarda belgilash (kitobning varag'i).

Ot yasovchi qo'shimchalar. O'quvchilar nutqini otlar bilan boyitish.

Sifat (17 soat). SHaxs va narsaning rangini, shaklini, hajmini, mazasini, xususiyatini bildirishi, sifatlarning ot bilan ohang yordamida bog'lanishi. Sifatlarning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi. Ko'm-ko'k, oppoq, sap-sariq, och sariq, to'q qizil kabi sifatlarning talaffuzi, yozilishi, belgini kuchaytirib, kamaytirib ifodalashi (amaliy tushuncha). Sifatlarning yasalishi. O'quvchilar nutqini sifatlar bilan boyitish.

Son (11 soat). Sonning shaxs va narsaning sanog'ini (miqdorini) va tartibini bildirishi. Tartib sonlarning imlosi. Sonlarning otga bog'lanib kelishi. Sonlarning otga ohang yordamida bog'lanishi. Sonlarning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi. Sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan birikma tarzida yozish. Sonlarning yozuvda harfiy ifoda, arab, rim raqamlari bilan ifodalanishi.

Sonlarning yozilishi (etti, sakkizinchi, 8- mart, 2003-yil, IV sinf)

Sonlarning metr, gramm kabi so'zlar bilan kelganda bitta so'roqqa javob bo'lishi (amaliy), ikkov, o'ntacha, beshtadan kabi qo'shimcha sonlarning yozilishi (amaliy).

Kishilik olmoshlari (11 soat). Kishilik olmoshlari, ularning uch shaxsni ifodalashi. 3-shaxs (birlik va ko'plik) kishilik olmoshlarining ot o'rnida

qo‘llanishi. Kishilik olmoshlarining kim? so‘rog‘iga javob bo‘lishi. Kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi, imlosi. Ularning olmoshlarining bosh va ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi. Kishilik olmoshlaridan nutqda o‘rinli foydalana olish.

Fe‘l (28 soat). Fe‘l, uning kesim vazifasida kelishi, fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanishi. Shaxs-son qo‘shimchalarining so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimcha ekani. Shaxs-son qo‘shimchalari harakatni uch shaxsning biri tomonidan bajarilishini bildirishi. Shaxs-son qo‘shimchalarining -yap, -di zamon qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘shiladigan shakllari (amaliy). Shaxs-son qo‘shimchali fe‘llarning talaffuzi va imlosi. Fe‘l zamonlari, ularning harakatni uch zamonning birida bajarilishini bildirishi, o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon fe‘llari, qo‘shimchalari. Uch zamondagi fe‘llarning talaffuzi va imlosi. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalar. O‘quvchilar nutqini fe‘llar bilan boyitish.

O‘quv yili oxiridagi takrorlash (10 soat). O‘quv yili oxiridagi takrorlash o‘rganilgan bilimlarni eslatish orqali sistemaga solish va umumlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

O‘quvchilar bir darsda bir necha turdagi topshiriqlarni bajaradilar.

Takrorlash darslari matn, gap, gap bo‘laklari, tovush va harflar, tovushlarning turlari, bo‘g‘in, alifbo, o‘zak, so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimcha, so‘z turkumlari bo‘yicha o‘tkaziladi.

O‘quvchilar nutqi va yozuvidagi kamchiliklar hisobga olinadi.

Bu o‘qituvchining boshqa sinflarda ta‘lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishini ta‘minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilar lug‘ati – so‘zlar bilan ishlash jarayonida maktab darsliklaridan keyingi zaruriy manba sifatida lug‘atlarga murojaat qilish zaruriyati doimo mavjud. Bu zaruriyat, avvalo, savod o‘rgatish davridanoq boshlanadi. So‘z ustida ishlaganda lug‘atlar so‘z imlosini tekshirishda darhol yordamga keladi. O‘quvchilar bilan o‘quv yili davomida imlosi ustida ishlanadigan ayrim so‘zlar darslik oxiridagi lug‘atchada berilgan.

II. BOB.

To‘rtinchi sinf ona tili darslarida reja tuzishga o‘rgatish metodikasi.

1-§. To‘rtinchi sinf ona tili darslarida matn rejasini tuzishning o‘ziga xos xususiyatlari

Reja – biror ishni tartib bilan va o‘z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo‘lj³. Reja bayon qilinadigan matnning asosiy mazmunini aks ettirishi va voqea-hodisalarni izchil bayon etishga yordam berishi kerak. Reja eng muhim va ikkinchi darajali fikr hamda hodisalarni, ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashda o‘quvchilarga katta yordam beradi.

O‘quvchilar reja tuzishga kirishishdan oldin matnning umumiy mazmuni bilan tanishish uchun uni to‘la-to‘kis o‘qib chiqadilar; so‘ngra matn qismlarga yoki boblarga bo‘lib o‘qiladi. O‘quvchilar har qaysi qismga sarlavha qo‘yadilar. Qismlarning sarlavhasi savol yoki atov gap xarakteridagi qisqa jumalardan iborat bo‘lishi lozim. Reja tuzishdagi ishning bunday dastlabki usullari ko‘pincha birinchida boshlanib keyingi sinflarda takomillashtiriladi.

O‘quvchilar reja tuzishda matnning har bir qismi qanday hodisa bilan tugashini aniqlab olishlari kerak. Buning uchun o‘qituvchi matnning qismlarini avval o‘zi aniqlaydi va matnga sarlavha qo‘yishni, keyinroq esa matndagi har qaysi qismning tugagan joyini aniqlashni o‘quvchilarga topshiradi. Bunda “Qism qaerda tugaydi”, “Bu qismda nima haqida gapiriladi?”, “Nima uchun bu qism shu erda tugaydi?” degan savollar beriladi. Reja tuzish uchun tanlangan matn tugallangan, qismlarga oson bo‘linadigan, bu qismlar hajm jihatidan mumkin qadar baravar bo‘lishi kerak. Demak, bayon matnining rejasini tuzishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni materialni reja asosida mantiqiy izchillik bilan bayon qilishga, ularni bayon matnining rejasini mustaqil suratda tuzishga va tasvirlangan hikoya yoki maqolaning mazmunini yaxshi tushunishga o‘rgatishdir.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 3-jild. – Toshkent: O‘ME, 2007. – B.369.

Matn rejasini tuzishda turli usullardan foydalanish mumkin.

O'quvchilar matnga reja tuzishni asosan ona tili va sinfda o'qish darslarida o'rganadi.

O'qituvchi matnni reja asosida qayta hikoya qilishni, dastlab, so'zlarni to'g'ri talaffuz etadigan eng yaxshi o'quvchilarga topshiradi. Bu narsa o'quvchilarni qiziqtiradi. Boshqa o'quvchilar o'z o'rtog'ining hikoyasini eshitadilar, uning nutqidagi yutuq va kamchiliklarni hisobga oladilar, o'qituvchining nutqidan esa namuna oladilar. So'ngra ko'pchilik o'quvchilar matnni ana shunday qayta hikoya qilib berishga o'tadilar. Lekin yozma bayon o'tkazish vaqtida bayon matnini og'zaki so'zlab berishni bo'sh o'quvchilardan talab qilmaslik lozim. Chunki bu narsa matnni o'zlashtirishga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Reja ikki xil bo'ladi:

- 1) sodda reja;
- 2) murakkab reja.

Matnning asosiy qismlarini va misollarni o'z ichiga olgan reja sodda reja bo'ladi. Murakkab rejada sodda reja uchun tanlangan moddalar ikkinchi darajali qismlarga ajratiladi; bu mayda qismlar voqeaning butun ikir-chikirini o'z ichiga oladigan yanada maydaroq qismlarga ajratiladi.

Matn rejasi ayrim matnni yoki matnning mavzusi, g'oyaviy mazmuni, syujeti va kompozitsiyasini alohida-alohida yoritishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Matnning rejasini tuzish katta ahamiyatga ega, chunki o'ylab tuzilgan tadrijiy reja o'quvchi nutqining ixcham, puxta va aniq bo'lishiga ko'p yordam beradi. Matnga yoki uning qismlariga qo'yilgan sarlavhalar, bayon rejasi turlicha ifodalanadi. Ular darak, so'roq, undov yoki atov gaplardan iborat bo'lishi mumkin. Matnni qisqartirib bayon etish birinchi sinfdanoq boshlanadigan ish sanaladi.

Uchinchi sinfda matnni qayta so'zlab berishdagi asosiy vazifa matndagi izchillikni saqlash va rejaga amal qilishdir, chunki bu sinfda qayta so'zlab berishning asosiy tili hikoya qilishdir. To'rtinchi sinfda esa matn mazmunining to'raligiga, birinchi va ikkinchi darajali materiallarni ajrata olishga, matnning

muhim tomonlarini anglay olishga e'tibor qilish matnni qayta so'zlab berishdagi asosiy vazifadir. To'rtinchi sinfda voqea-hodisalarni, xarakterlarni tasvirlab berish qayta hikoya qilishning yangi turi hisoblanadi. Bu sinfdan boshlab matnni qayta hikoya qilib berish bilan birga matnning g'oyaviy tomonini ochib berishga ham e'tibor qilinadi. Matnni qayta so'zlab berish bayonni uchun tanlanadigan hikoya yoki parchaning faqat hajmi va mazmuniga emas, balki tiliga ham e'tibor berish zarur. O'qituvchi bu matnlardagi yangi sintaktik qurilishlarni nazarda tutishi, o'quvchilar esa matndagi yangi so'zlarni o'z bayonlariga ongli ravishda kiritishlari lozim.

To'rtinchi sinfda qisqartirib qayta hikoya qilish uchun murakkab bo'lmagan, qisqa, qiziqarli, hikoya xarakteridagi matnlarni tanlash zarur. To'rtinchi sinfda dastlab hikoya yo'li bilan yozilgan, keyin qisman tasviriy o'rinlari bo'lgan matnlarni tanlash kerak. Beshinchi sinfda esa ilgarigilarga nisbatan murakkab bo'lgan matnlar ustida ish olib borish talab qilinadi.

Hikoyadagi so'zlovchi shaxsni o'zgartirib qayta hikoya qilishni to'rtinchi sinfdan boshlash zarur. Lekin bu sinf o'quvchilaridan har vaqt ham bunday hikoya qilib berishni talab qilish shart emas. Agar matn ancha qiyin bo'lsa, u vaqtda birinchi shaxs nomidan hikoya qilish shaklidan foydalanish ma'qul.

Matnni qisqartirib bayon qilish uchun olib boriladigan barcha tayyorgarlik ishlari jamoa bo'lib uyushtiriladi. O'quvchilar matndagi muhim va ikkinchi darajali materiallarni ajrata olishlari kerak. Shundan so'ng bayon yozishga kirishiladi. Ammo bayon qilishni boshlashdan oldin o'quvchilarga rejaning har bir qismiga doir materiallarni alohida so'zlatib boriladi va ularni mumkin qadar qisqa, to'g'ri ifodalardan foydalanishga o'rgatiladi, shu bilan birga, ayrim o'quvchilarga reja asosida qisqacha og'zaki qayta so'zlatiladi. O'quvchilarga qisqa bayon yozish uchun tayyorlanib kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.

Aniq faktlarni umumlashtirish maqsadida tanlangan bayon matnlari biografik xarakterda bo'lgan asarlardan yoki asar qahramonining hayotini tasvirlovchi

boblardan olinishi muvofiqdir. Bunday ishning qimmatini shundaki, o'quvchi matnni aktiv ravishda qaytadan ishlaydi, uni yangicha ifodalaydi.

Matnni bayon qilishda ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni o'z o'rnida ishlata bilish va ularni biridan ikkinchisiga aylantira bilish malakasi ham alohida ahamiyatga ega. O'zlashtirma gapni ko'chirma gapga aylantirish o'quvchilardan ma'lum ko'nikma talab qiladigan ancha qiyin ishdir. SHuning uchun bu ish to'rtinchi sinfdan boshlanadi va beshinchi va to'rtinchi sinflarda ham olib boriladi.

Ma'lum bir asardan yoki uning tegishli bobidan bir epizodni ajratib olib bayon etish to'rtinchi sinf o'quvchilari uchun eng qiziqarli ishdir. Ajratib olingan bunday matn yuzasidan qayta hikoyalash uchun o'qituvchi avval bu parchani o'qib beradi; bu parcha kichikroq bo'lishi, o'quvchilarning yozib olishi mumkin bo'lgan epizodlarni o'z ichiga olishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ancha murakkab matnlar yuzasidan qayta hikoyalay boshlaydilar. To'rtinchi sinfda o'quvchilar yirikroq asarlarning qisqa bayonini so'zlay olishi kerak. O'quvchilardan kichik asarlarning qisqartirilgan bayonini talab qilish foydalidir. Jumladan, masallarning qisqa bayonini talab qilish o'quvchilarning bu masallarni yaxshiroq o'zlashtirishlariga imkon beradi. Bu o'rinda masallardan chiqariladigan axloqiy xulosalar e'tiborga olinadi.

Har qanday material haqida yozilgan qisqa qayta hikoyalash o'quvchilarning mustaqil fikr va mulohazalari natijasi sifatida tugallanishi kerak.

To'rtinchi sinfdan boshlab o'quvchilarni uitalardan foydalanishga o'rgatish zaruriyati tug'iladi. O'qituvchi u yoki bu xil bayonni o'tkazayotgan vaqtda, uitalardan foydalanish usullarini ko'rsatishi kerak. O'quvchilarga murakkabroq matnlardan uita olishni, bu uitalar qaysi muallif va qaysi manbadan olinganligini ko'rsatishni o'rgatish lozim.

Bog'lanishli nutq o'stirishda reja tuzish. Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq bog'lanishli nutq deyiladi.

Bogʻlanishli nutq birligi deb hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa oʻqituvchi bergan savolga oʻquvchilarning keng, mukammal ogʻzaki javobini, yozma bayon va inshoni hisoblash mumkin.

Boshlangʻich sinflar metodikasida bogʻlanishli nutqdan mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) oʻqilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni oʻrganish; oʻquvchilar lugʻatini faollashtirish bilan bogʻliq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam oʻtkazilgan kuzatishlarni yozish, ob – havo kundaligini yuritish;
- 4) oʻqilgan matnni turli variantda ogʻzaki hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida oʻquvchilarning ogʻzaki hikoyasi;
- 6) badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, oʻquvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish;
- 7) ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik sheʼr, hikoya tuzish;
- 8) namunasi berilgan badiiy, ilmiy – ommabop matn asosida bayon yozish;
- 9) oʻqituvchi bergan matnni ogʻzaki va yozma qayta tuzish (tanlab qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyani sahnalashtirish kabilar);
- 10) har xil turdagi yozma insho, boshqa ijodiy ishlar.

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi, oʻrgatiladi.

Bogʻlanishli nutqqa oid asosiy koʻnikmalar. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari mustaqil mashq sifatida bogʻlanishli nutqni oʻstirishdan quyidagi koʻnikmalarni bilib oladilar:

Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan toʻliq yoritish koʻnikmasi.

Inshoni asosiy fikrga boʻysundirish koʻnikmasi.

Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish.

Materialni sistmaga solish, uni tegishli izchillikda joylashtirish, matn rejasini tuzish va shu reja asosida yozish ko'nikmasi.

Fikrni ona tili qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasi.

Matnni og'zaki yoki yozma tuzish, inshoni yozish, ya'ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko'nikmasi.

Yozilgan matnni takomillashtirish ko'nikmasi. Bu ko'nikma o'z ijodiga tanqidiy munosabatda bo'lish asosida tarbiyalanadi.

Shuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqni o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

Bayon va insho janrlari. Matnli mashqlar, metodik traditsiyaga ko'ra, tasvirlash, hikoya qilish va muhokamaga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda bular, asosan, tasvir yoki muhokama elementlari bo'lgan hikoya tarzida uchraydi.

Har uchala janr uchun foydalaniladigan material harakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o'qituvchi (yoki o'quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi.

Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi.

Tasvirda syujet, qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va xodisalar tasvirlanadi.

Muhokama bog'lanishli matnning anchagina qiyii shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o'quvchilar inshoda muhokama elemenglaridangina foydalanadilar. Masalan, «Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas», «Paxta bizning boyligimiz» mavzularida og'zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elementi, albatta, bo'ladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko'zda tutadi va o'quvchilarga xikoya, tasvir va muhokama elementlarini o'rgata boradi.

Bayon o'qib berilgan namunaviy matnni, matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir.

Namunaviy matn og'zaki va yozma hikoya qilinadi.

Bayon yozishga tayyorgarlik o'qish darslarida o'qilgan asar matnini qayta hikoyalash, savollarga javob berish, reja tuzish, reja asosida qayta hikoyalash jarayonida boshlanadi. Ona tili darslarida mashq ishlash jarayonida tayyorgarlik yozma shaklda amalga oshiriladi.

Har qanday qayta hikoyalash asosida bayon yozish mumkin. Bayon uchun kichik hajmdagi, tuzilishi sodda matn tanlanadi, keyin u murakkablashtirilib boriladi.

Hikoya shaklidagi matndan asta-sekin tasvir, muhokama elementlari bor matn tanlanadi, qatnashuvchilar soni kupaytirib boriladi. Bayon asta – sekin ijodiy xarakter kasb etib boradi.

Boshlang'ich sinf dasturiga ko'ra 2- sinfda 30-40 so'zli matn tanlanadi, so'roqlar yordamida bayon yoziladi. 3- sinfda 40-60 so'zli 3-5 qismli (reja) matn, 4- sinfda 70-90-so'zli mustaqil tuzilgan reja asosida bayon yoziladi.

Bayonning ahamiyati:

- bolalarda ona tili nutq to'g'ri shakllanadi.
- nutq madaniyati egallanadi.
- badiiy uslub singdiriladi.
- tilga sezgirlik oshiriladi.

Bayonning mavzulari:

- kishilarning hayoti, mehnati, yutuqlari ifodalangan matn.
- tabiat bilan bog'langan matn.
- fan-texnika madaniyat yutuqlariga oid matn.

Bayon mavzusi o'quvchilarning bilimini kengaytiradi. Dunyoqarashini shakllantiradi. Qayta hikoyalashda til materiallaridan, nutq oborotlaridan, sintaktik qurilishdan foydalana olish zarur.

Qayta hikoyalashda voqealar izchilligi, asosiy faktlar saqlanishi kerak.

Qayta hikoyalashda maxsus tayyorgarlikda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

1) Qayta hikoyalash turi haqida o'quvchilar ogohlantiriladi. To'liq matnga yaqinlashtirib, tanlab, qisqartirib ijodiy qayta hikoyalaniadi.

2) suhbat, matn mazmuni tahlil qilinadi, til oborotlari, gaplari aniqlanadi.

3) Qayta hikoyalashni puxtalash uchun ifodali o'qish.

4) Matnni kompozitsiyali qismlarga bo'lish, sarlavha, reja tuzish.

5) Matnni qayta hikoyalash, kamchiliklarini tuzatish.

6) Qayta hikoyalashni bolalar hayoti bilan bog'lash.

To'liq qayta hikoyalash uchun hikoya tanlanadi, boshlang'ich sinflarda ko'p o'tkaziladi. Bir kishining hikoyasi tarzida matn bo'ladi. Matnda qahramonlarning, tabiat tasvirining, muhokama elementlarini bilishi zarur.

Qayta hikoyalash uchun tuzilgan savollar har bir fanga qaratilmasdan, umumlashtiruvchi harakterda bo'lishi kerak.

To'liq bayonda uchraydigan kamchiliklar:

a) hikoyani to'g'ri boshlashni bilmaslik;

172-mashq. O'ktam qizchasini suvdan qutqarib oldi (davom ettirishning endi iloji yo'q).

b) matn mazmunini davom ettira olmaslik;

d) tushunmasdan noto'g'ri bayon qilish;

e) bayon qilishda til kambag'alligi.

Bu kamchiliklariiii yo'qotish uchun:

a) matnni qismlarga bo'ling

b) qismlarga sarlavha topish;

d) reja tuzish;

e) reja asosida qayta hikoyalash.

Til kambag'al bo'lmashligi uchun til materiallari ustida ishlash.

Bayon yozish quyidagicha uyushtiriladi.

1. Bolalarga matn 1-2 marta o'qib beriladi.
2. Suhbat: qismlarga bo'lish, mazmuniy bog'lanishlarni aniqlab, reja tuzish.
3. Lug'at ishi (so'z ma'nosi va imlosi).
4. Muhim til birliklariga diqqat qilish.
5. Gaplar tuzdirish.
6. Qayta hikoyalash.
7. Yozish.

Tanlab qayta hikoyalash matnning tor mavzusi, kichikroq so'roqqa oid qism tanlanadi. Masalan: o'qilgan matndagi qahramonning ko'rinishi, ikki qahramonniig to'qnashuvi, tabiat tasviri tanlanadi.

Tanlab qayta hikoyalash turlari:

- 1) qahramonning tashqi ko'rinishini tanlab qayta hikoyalash;
- 2) tabiat tasviri. Matnning bir qismini unga chizilgan rasm asosida qayta hikoyalash;
- 3) o'quvchining topshirig'i bilan hikoyaning bir epizodini qayta hikoyalash;
- 4) berilgan mavzuda asarning turli o'rinlaridan parchalar olib qayta hikoyalash.

Qisqartirib qayta hikoyalashda quyidagi savollardan foydalaniladi.

Har bir qismni bir gap bilan aytish, 1-qismdan asosiy gap qaysi?

- 1) shaxsni o'zgartirib qayta hikoyalash va bayon;
- 2) hikoyadagi biror qahramon tilidan hikoyalash va bayon;
- 3) matnni ijodiy to'ldirib qayta hikoyalash va bayon;
- 4) so'z bilan tasirlash yoki sahnalashtirish.

Bunda quyidagi topshiriqlar bajariladi: "Siz shunday holatda o'zingizni qanday sezasiz? Bular rasmlarda tasvirlangan deb o'ylang. Shy voqealar ko'z

oldingizdan o'tyaptimi? Siz ko'rgansiz, eshityapsiz, o'zingiz tasvirladim deb o'ylang".

Qahramonning tashqi ko'rinishini tasvirlash mumkin. Suhbat orqali asosiy joylari ajratib olinadi. Reja tuziladi. Reja asosiy o'rinlarni ifodalashi zarur.

Qisqartirib bayon etish nisbatan katta matnlar ustida bo'lganda uyga topshirilishi ham mumkin. Bayon yozdirish uchun olib boriladigan tayyorgarlik ishlari matnni o'qitish, tahlil qildirish, bayon rejasini tuzdirish, ba'zan matnni og'zaki so'zlatishdan iboratdir.

O'qituvchi matnni o'qishdan oldin uni o'quvchilarga mumkin qadar yaxshiroq, puxtaroq anglatish maqsadida suhbat o'tkazishi mumkin. Bunday suhbat orqali o'qituvchi o'quvchilarning matn haqidagi aniq tasavvurlarini aniqlab oladi, o'quvchilarga tanish bo'lmagan so'zlarni izohlab beradi.

Qayta hikoyalash uchun berilgan matnda muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalar haqida o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun ko'rsatmali qurollardan – rasmlar va suratlardan foydalaniladi. Lekin suhbat o'tkazish paytida matndan chetga chiqish yaramaydi, chunki bu hol o'quvchilarning o'qilgan matn haqidagi tasavvurlarini chalg'itishi mumkin. Agar matnda o'quvchilarga tushunarli bo'lmagan so'zlar uchramasa, matnni o'qishdan oldin tushuntirish suhbatini o'tkazishning zarurati yo'q.

Matnini quyidagicha tahlil qilish mumkin: o'qituvchi qayta hikoyalash uchun ajratilgan matnni mumkin qadar ta'sirli, erkin, hikoyaga yaqin qilib o'qib beradi. Matn o'qilgandan so'ng suhbat o'tkaziladi. O'quvchilar matnni shunday yaxshi o'zlashtirishlari kerakki, natijada ular matnni yaxshi tahlil qila oladigan bo'lsinlar, o'zlarini matndagi voqea-hodisalarda ishtirok etganday tasavvur qilsinlar. Ular materialni shundagina ongli ravishda erkin va batafsil bayon qilishlari mumkin.

Demak, o'quvchilar, dastavval matn mazmunini chuqur anglashlari kerak. Buning uchun ular asardagi eng muhim o'rinlarni, muallifning tasvirlamoqchi bo'lgan muhim voqelasini topa olishlari zarur.

O'quvchilarni asta-sekin asardagi g'oyani aniqlay olishga o'rgatishda, shubhasiz, o'qituvchining roli katta. O'qituvchi savollar yordami bilan, tushuntirish yo'li bilan o'quvchilarni hikoyaning syujeti, mazmuni, goyasi, obrazlari va ularning xarakteri, asarning qurilishi, kompozitsion elementlari, turli badiiy vositalari, tili bilan tanishtiradi.

Matnga yaqinlashtirib hikoya qilish.

O'quvchilarning yozma nutqi hali zaif bo'lgan bir vaqtda qayta hikoyalashning matnga yaqinlashtirib hikoya qilish turini qo'llash muvofiqdir. Buning uchun:

a) o'qituvchi rivoyat turidagi kichikroq hikoyani tanlaydi, qisqagina kirish suhbatidan so'ng uni o'qib beradi;

b) o'qituvchi matnni o'qib bo'lgandan so'ng o'quvchilar o'zlariga tanish va aniq bo'lmagan so'z va jumla qurilishlarini yozib oladilar, so'ngra matn tahlil qilinadi;

v) o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda o'qilgan hikoyaning rejasini tuzadi. O'qituvchi rejani doskaga yozadi, o'quvchilar daftarlariga ko'chirib oladilar.

g) tuzilgan reja asosida matn ikkinchi marta o'qiladi.

O'qituvchi hikoyaning birinchi qismini o'qib bo'lgandan so'ng, keyingi qism sarlavhasining rejasini og'zaki yoki yozma ravishda bayon etadi. O'qituvchi hikoyaga qanday sarlavha qo'yishni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi, hikoya sarlavhasining bir necha xil variantini aytadi. Sarlavha topishni o'rgangan o'quvchilar bu ishga mustaqil ravishda kirisha beradilar.

O'quvchilar mana shunday atroflicha tayyorgarlik ishlaridan so'ng hech bir qiyinchiliksiz matnni qayta hikoya qilishga kirisha oladilar. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, hatto yaxshi o'zlashtirmovchi o'quvchilar ham bu vazifani qiynalmasdan bajara oladilar.

2-§. To‘rtinchi sinf ona tili darslarida “Gapning bosh bo‘laklari”

mavzusini o‘tishda reja tuzishga o‘rgatish

MAVZU: Gapning bosh bo‘laklari

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarning gap haqidagi bilimlarini umumlashtirish va mustahkamlash. Gap bo‘laklari, ularning so‘rog‘i, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini suhbat, test, saylanma diktant yordamida aniqlash. Gapdagi so‘zlarga so‘roq berib, vazifasini aniqlash, so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini farqlash ko‘nikmalarini takomillashtirish. Berilgan she’rlarning qofiyasini topishni o‘rgatish;

b) o‘quvchilarda tabiatga mehr, undagi jonzotlarga muruvvat ko‘rsatish tuyg‘usini o‘stirish. O‘zining qilayotgan ishlariga javobgarlik hissini tarbiyalash.

Darsning turi: takrorlash va mustahkamlash darsi.

Darsning metodi: suhbat metodi.

Darsning jihozi: paxta, paxta dalalari tasvirlangan rasmlar.

Darsning borishi:

1. O‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish. Saylanma diktant o‘tkazilishi haqida ogohlantirish.

2. Uyga berilgan 14-mashqning bajarilganligi yuzasidan suhbat.

– Matn nima haqida ekan? (Oqtovdagi pista va bodomzorlarning yaratilishi haqida ekan.)

– Matnda mazmuniga ko‘ra qanday gaplar qatnashgan? (So‘roq, darak va buyruq gaplar qatnashgan.)

Matndagi so‘roq gap o‘qitiladi. O‘quvchilar gapdagi so‘roq so‘z o‘rniga qanday so‘z qo‘yish mumkinligini aytgach, izohlab beradilar. (Oqtovdagi yashil pistazor va bodomzorlarni nimalar yaratganini bilasizmi? So‘roq gap. Chunki gap so‘rash ohangi bilan aytiladi. Gapda nimalar? so‘roq so‘zi va -mi so‘roq qo‘shimchasi ishtirok etgan. Gap oxiriga so‘roq belgisi qo‘yilgan.)

– Matnda nechta darak gap ishtirok etgan? Izohlang. (Matnda 4 ta darak gap ishtirok etgan. Bu gaplar tugallangan ohang bilan aytilib, xabar mazmunini bildiradi. Gaplar oxiriga nuqta qo'yilgan.)

– Yana qaysi gap izohlanadi? (Siz ham tabiatni kuzating degan gap.)

– Bu gaplar xabar mazmunini bildiradimi? (Yo'q. Bu gap buyruq mazmunini anglatadi.)

– Nima uchun? (Chunki gapda o'quvchilarni tabiatni kuzatishni o'rganishga undash ma'nosi bor.)

– Demak, buyruq gaplar darak gaplardan qanday farq qiladi? (Buyruq gaplar suhbatdoshni nimadir qilishga undosh mazmunida bo'ladi.)

– Undosh esa iltimos, buyruq, taklif, maslahat, yalinish tarzida bo'ladi. Bu gap qanday tarzda yozilgan? (Buyruq va maslahat tarzida yozilgan.)

– Darsligimizdagi mashqlar sharti ham qanday mazmundagi gaplar hisoblanadi? Misollar keltiring. (Buyruq mazmunini ifoda etgan gaplar. Masalan, O'qing, husnixat bilan yozing, o'ylang kabilar.)

Matndagi xarsang va tosh so'zlarining ma'nolari so'raladi.

3. Saylanma diktant.

Matndagi kim?, nima?, nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni husnixat bilan yozish, ularni qayta tekshirish kerakligi tushuntiriladi.

Daraxtlardagi barglar sarg'aydi. Kunlar asta-sekin sovidi. O'quvchilar maktablariga qaytishdi. Ularga o'qituvchilar bilim berishyapti.

O'quvchilar kim?, nima?, nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni yozadilar. (Barglar sarg'aydi. Kunlar sovidi. O'quvchilar qaytishdi. O'qituvchilar berishyapti.)

Har bir so'zga so'roq beriladi.

– Barglar so'ziga so'roq bering. (Nima?)

– Sarg'aydi so'ziga so'roq bering. (Nima qildi?)

– Gapda nima?, kim? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qanday gap bo'lagi bo'lib keladi? (Ega bo'lib keladi.)

- Nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar-chi? (Kesim bo‘lib keladi.)
- Ular gapning qanday bo‘laklari hisoblanadi? (Ular gapning bosh bo‘laklari hisoblanadi.)
- Birinchi gapdagi ega va kesimini aniqlang-chi? (Barglar egasi, sarg‘aydi kesimi.)
- Ega yana qanday so‘roqqa javob bo‘ladi? (Kim? so‘rog‘iga.)
- Diktant matnida kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni toping. (O‘quvchilar, o‘qituvchilar so‘zlari kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Gap bo‘lagida ega bo‘lib kelgan.)
- Eganing tagiga qanday chiziq chizamiz? Kesimning-chi? (Eganing tagiga 1 to‘g‘ri chiziq, kesimning tagiga 2 to‘g‘ri chiziq chizamiz.)

Diktant matni yana bir marta o‘qiladi va o‘quvchilar yozganlarini tekshiradilar.

4. Darslik bilan ishlash.

19-mashq. She‘r o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi.

19- mashq. She‘rni ifodali o‘qing. Uning qaysi haqida ekanini ayting. SHe‘rni yoddan yozing.

Bunda **bulbul** kitob o‘qiydi.

Bunda **qurtlar** ipak to‘qiydi.

Bunda **ari keltiradi** bol,

Bunda **qushlar topadi** iqbol.

Bunda qorlar taglarida **qish**,

Bahor uchun **so‘ylaydi** olqish.

Hamid Olimjon

Ushbu o‘rinda O‘zbekiston haqidagi suhbat reja asosida tashkillanadi:

Reja:

1. O‘zbekiston qanday o‘lka?
2. Insonlari qanday baxtga ega?
3. Hayvon va parrandalari nimani kuylaydi?

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ularning qaysi gap bo'lagi ekanligini aniqlang. O'qiydi, keltiradi, topa, so'ylaydi so'zlari qanday ma'noda qo'llangan? Taqqoslang: o'quvchi o'qiydi – bulbul o'qiydi.

So'zlar gapda qanday ma'nolarda qo'llanadi?

Iqbol – baxtli taqdir, baxt, omad

Olqish – yaxshilik tilash so'zlari

– Ushbu she'rda qaysi diyor tilga olingan? (O'zbekiston diyori.)

– Qaerdan bildingiz? (Chunki bu parcha H.Olimjonning «O'zbekiston» she'ridan olingan.)

She'rni o'quvchilar yod olganligi aniqlanadi va husnixat bilan daftarga yozdiriladi. She'r yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

– Shoir nima uchun she'rini «O'zbekiston» deya atadi? (Chunki O'zbekiston H.Olimjonning Vatani. Shoir Vatanini sevadi.)

– She'rga e'tibor bering. Bulbul kitob o'qishi mumkinmi? (Yo'q. Bulbul chiroyli sayraydi.)

– Nima uchun shoir bulbulni kitob o'qiydi deb ta'riflamoqda? (SHoir bulbulning sayrashini kitob o'qishga o'xshatyapti.)

– Qurtlar ipak to'qiydi degan gapni izohlab bering-chi. (Ipak qurtidan olingan tolalardan faqat O'zbekistondagina atlas matosini to'qishadi. Shuning uchun qurtlarni ipak to'qiydi deya tasvirlamoqda.)

Shu tarzda arilari keltiradi bol, qushlar topadi iqbol. Qish sayraydi o'qish jumllariga izoh beriladi.

– Demak, o'qiydi, keltiradi, topadi, so'ylaydi so'zlari o'z ma'nosida kelganmi? (Yo'q. Ko'chma ma'noda kelgan.)

– Nima uchun? (Chunki bu harakatlar faqat insonlar tomonidan bajariladi.)

– Bu harakatlar hayvonlarga nisbatan ishlatilgani uchun ko'chma ma'noda kelgan ekan.

– Iqbol, o'qish so'zlarining ma'nosini bilasizmi? (Iqbol baxt-saodat degani, o'qish maqtash deganidir.)

Bu javoblarni berishda o'qituvchi yordam berishi kerak.

– Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ichida nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni toping. (Bulbul, qurtlar, ari, qush so'zlari nima? so'rog'iga javob bo'ladi.)

– Bulbul so'zi-chi?

– She'r necha gapdan iborat? (5 gapdan iborat.)

– Birinchi gapni o'qing. Nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zni aniqlang. (Bunda bulbul kitob o'qiydi. Bulbul, kitob so'zlari nima? so'rog'iga javob bo'ladi.)

– Kitob o'qiydi jumlasiga qanday qo'shimchani qo'yish mumkin? Nimani o'qiydi? (kitobni o'qiydi.)

– Demak, she'rni ixchamlashtirish uchun shoir -ni qo'shimchasini tushirib qoldirgan ekan.

– Birinchi gapning egasi qaysi so'z ekan? (Bulbul)

– Bulbul nima qilar ekan? (Bulbul o'qiydi.)

– O'qiydi so'zi qanday so'roqqa javob bo'ladi? (Nima qildi? so'rog'iga javob bo'ladi.)

– O'qiydi so'zi nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lsa, qaysi gap bo'lagi bo'ladi? (Kesim bo'ladi.)

SHu tarzda qolgan 4 gapning bosh bo'laklari aniqlanadi. Yoddan yozilgan she'r darslikka qarab tekshiritiladi.

20-mashq og'zaki bajariladi. O'quvchilar matnni ifodali o'qiydilar. Gaplar soni aniqlanadi.

20- mashq. Matnni o'qing.

Bog'da chiroyli kapalak guldan-gulga qo'nardi. Karimjon do'ppsini uning ustiga otib tutib oldi. Kapalak Karimjonning barmoqlari ostida go'zalligini yo'qotdi.

Karimjon to'g'ri ish qildimi?

Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

Bosh bo'laklar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

Matnni ko‘chirib, bosh bo‘laklarning tagiga chizing.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini tushirib o‘qing.

Bosh bo‘laklar gap hosil qiladimi?

Gapning bosh bo‘laklarini tushirib o‘qing.

Qolgan bo‘laklar gap hosil qiladimi?

Xulosa chiqaring.

Gapning asosini qaysi bo‘laklar tashkil qiladi?

Matnni ko‘chirib gap bo‘laklarining tagiga chizing

Ega va kesim gapning asosini tashkil etadi

- Matnda nechta gap bor? (3 ta gap bor.)
 - Gaplar anglatgan mazmuniga ko‘ra qanday gaplar ekan? (Darak gaplar.)
 - Nima sababdan darak gap bo‘lar ekan? (Chunki 3 ta gap ham tugallangan ohang bilan o‘qildi. Ular xabar mazmunini bildiriyapti. Gaplar oxiriga nuqta qo‘yilgan.)
 - Birinchi gapda kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zni toping. (Birinchi gapda kapalak so‘zi nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.)
 - Kapalak nima qilardi? (Qo‘nardi. Bu so‘z gapda kesim bo‘lib kelgan.)
 - Ikkinchi gapdagi Karimjon so‘ziga savol bering. (Kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.)
 - Gapda Karimjon so‘zi qaysi gap bo‘lagi hisoblanadi? (Ega.)
 - Karimjonning harakatini bildirgan so‘zni toping va so‘roq bering.
 - Shu so‘z qanday gap bo‘lagi bo‘ladi? (Karimjon otdi, tutib oldi. Nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Gapda kesim bo‘lib kelgan.)
- 3-gap ham shunday tahlil qilinadi. Matn mavzusi yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.
- Matn nima haqida ekan?
 - Kapalak qanday ekan? (Kapalak juda chiroyli ekan.)
 - Kapalak chiroyini yo‘qotibdi.
 - Karimjonning qilgan ishi to‘g‘rimi?

21-mashq. O'quvchilar matn sharti bilan tanishadilar.

O'quvchilar diqqati misralar oxiridagi tinish belgilariga, gaplarning tugallangan ohang bilan aytilishiga qaratiladi. She'riy matnda 6 ta gap borligi aniqlanadi. Gaplarning 4 tasi darak gap, 2 tasi his-hayajon gap ekanligini aytadilar. Shu gaplar ohangiga ko'ra hayajon bilan o'qitiladi.

Yaxshi niyat o'lmaydi gapdagi gap bo'laklarini aniqlashda quyidagicha ishlanadi. Bunda so'roqlar shu so'z bog'langan so'z orqali berilishi o'rgatiladi.

Nima o'lmaydi? – niyat o'lmaydi: niyat – gapning egasi; niyat nima qilmaydi?
– niyat o'lmaydi: o'lmaydi – gapning kesimi; qanday? niyat – yaxshi niyat yaxshi
– ikkinchi darajali bo'lak.

Gapning bo'laklari quyidagicha belgilanadi: Yaxshi niyat o'lmaydi.

2-gap ham shu tarzda tahlil qilinadi.

Lug'at ishi. Parvozi, ovozi, o'lmaydi so'zlarining ma'nosi birikmalar tuzdirish orqali oydinlashtiriladi.

– Ovoz deganda nimani tushunasiz?

– Yurakning ovozi deganda nimani tushunasiz?

– Demak, ovoz so'zi nechta ma'no bildiradi?

– Qaysi ma'nosini asl ma'no, qaysi birini ko'chma ma'no deyish kerak?

– Ovoz so'ziga ma'nodosh so'zlar keltiring. Qolgan so'zlar ma'nosi ustida ham ishlanadi.

– Odam a'zolari yoki tabiatda jismlarning urilishidan chiqqan ovozni tushunamiz.

– Yurakning istagi degan ma'noni tushunamiz.

– Ovoz so'zi 2 ta – ko'p ma'noni bildiradi.

– Odamning ovozi – asl ma'nosi. Yurakning ovozi – ko'chma ma'no.

– Ovoz, sas, tovush, sado.

Qolgan so'zlar ma'nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi. 22-mashq uyga vazifa qilib beriladi. O'quvchilar she'rni ichda o'qib chiqadilar va quyidagi savollarga javob beradilar:

- She’rda qaysi bolalarning ismi tilga olingan?
- Ular nima haqida insho yozganlar?
- Sizga qaysi bolaning qiyosi yoqdi?
- Siz paxtani nimaga o‘xshatgizingiz keladi?
- Uyda o‘ylab toping va bitta gap bilan yozing.
- Barnoning paxta haqidagi gapini topib o‘qib bering. (Paxtamiz momiq parga o‘xshaydi.)

– Shu gapni ko‘chirib, ularning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini aniqlaysiz.

She’r mazmunini rasm yordamida qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish vazifa qilib beriladi.

5. Darsda o‘rganilganlar yuzasidan o‘quvchilar javobi umumlashtiriladi:

– Gap gap bo‘laklaridan tuziladi. Gap bo‘laklariga bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklar kiradi.

– Ega bilan kesim gapning asosini tashkil etadi.

– Ega kim?, nima?, kimlar?, nimalar?, kesim nima qildi?, nima qildilar? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

– Bosh bo‘laklarsiz gap hosil bo‘lmaydi.

6. Darsda ishtirok etgan o‘quvchilarning reyting ballari e‘lon qilinadi.

MAVZU: **Bosh bo‘laklar** (takrorlash)

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarning bosh bo‘laklar haqidagi bilimlariga asoslanib, ega va kesim gapning asosini tashkil etishini, kim?, nima?, kimlar?, nimalar? so‘roqlariga javob bo‘lishini eslatish; bosh bo‘laklarning gap hosil qilishi haqida amaliy tushuncha berish;

b) nutqini ma‘nodosh so‘zlar bilan boyitish, vatanni sevish va ardoqlash ruhida tarbiyalash.

Darsning turi: o‘rganilganlarni mustahkamlovchi dars.

Darsning metodi: suhbat va ijodiy ish.

Darsning jihozi: narsa rasmlari, test.

Darsning borishi:

1. Uy vazifasini tekshirish. 18-mashq matnida nechta gap borligi, har bir gapning maqsadga ko'ra turi, gapning nimalardan tuzilganligi, har bir gapni ohangiga rioya qilgan holda o'qishlari so'raladi.

2. O'qituvchi doskaga 19-mashqning matnini yozib qo'yadi.

Ega va kesimning tagiga bir chiziq chizib qo'yadi. O'quvchilardan:

- She'rni o'qing.
- Nechta gap o'qidingiz?
- Ajratilgan so'zlarga e'tibor bering.
- Ajratilgan so'zlarga so'roq bering.
- Ular gapning qanday bo'laklari sanaladi?
- Siz gapning qaysi bo'laklarini aniqladingiz?
- Ular gapda qanday mazmunni bildiradi?
- Gapda yana qanday bo'laklar ishtirok etgan?

O'quvchilar she'rni bir necha marta ichlarida o'qiydilar. 1–2 o'quvchiga she'r yoddan aytiriladi.

So'ng she'rni yoddan yozishlari aytiladi. Daftarlarda har bir o'quvchi gaplarning ega va kesimlari tagiga chizadilar.

3. Lug'at ishi. O'quvchi o'qiydi. Bulbul o'qiydi – gaplaridagi o'qiydi. So'zlarining ma'nosi taqqoslanadi: 1-so'z o'zining ma'nosida ekanini, 2-o'qiydi so'zi «sayraydi» ma'nosida qo'llanganini aytadilar. O'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqartiriladi;

- So'zlar gapda qanday ma'noda qo'llanishi mumkin?
- So'zlar gapda o'zining ma'nosida, ba'zan boshqa ma'nolarda (ko'chma ma'nolarda) qo'llanishi mumkin.

4. Darslik bilan ishlash.

Iqbol, olqish so'zlariga berilgan izohni ichda o'qib, so'ng ularning ma'nosini izohlab berish so'raladi.

20-mashq. O‘quvchilar matnni o‘qib, tarbiyaviy xulosa chiqarib olganlaridan so‘ng 1-gap o‘qitiladi. Gapning bosh bo‘laklarini topgan o‘quvchi doskada, qolgan o‘quvchilar daftarlarida bajaradilar.

Mashq matnidagi gaplarni yozib, bosh bo‘laklarni aniqlab tagiga chizishgach, gaplarning 2-darajali bo‘laklarini tushirib o‘qishadi. Gap mazmunidagi o‘zgarishni aniqlashadi;

Kapalak qo‘nardi, Karimjon tutib oldi. Kapalak yo‘qotdi.

- Bosh bo‘laklarning o‘zi ham gap hosil qiladi. Bular fikr ifodalayapti.

Endi 2-darajali bo‘laklarni tushirib o‘qing. Mazmunda qanday o‘zgarish yuz berdi?

– Bog‘da chiroyli guldan gulga do‘ppisini uning ustiga otib...

– Gap hosil bo‘lmadi, biror fikr anglashilmadi.

– Demak, gapning asosini qaysi bo‘laklar tashkil etar ekan?

– Gapning asosini bosh bo‘laklar tashkil etar ekan.

Darslikdagi qoidani ichdan o‘qiydilar.

21-mashq ham shartiga ko‘ra bajartiriladi. O‘quvchilar daftarlariga quyidagicha yozadilar:

Yaxshi niyat o‘lmaydi.

Endi urush bo‘lmaydi! (Habib Rahmat)

O‘quvchilar diqqati gapda ega kesimdan oldin kelishiga qaratilsa, o‘quvchi gap tuzishda har bir bo‘lakning gapda o‘z o‘rni borligini biladi.

Lug‘at ishi. Ona ovozi – odamning ovozi bo‘ladi, orzuning ovozi birikmasida ovozi ko‘chma ma’noda; yaxshi niyatning parvozi – parvoz so‘zi qushga nisbatan ishlatiladi, bu gapda ko‘chma ma’no bildiriyapti, o‘lmaydi – «yo‘q bo‘lib ketmaydi» ma’nosida, ko‘chma ma’noda qo‘llangan.

5. Test ishlash.

1. Bosh bo‘laklardan tuzilgan gap berilgan qatorni toping.

A. Erta bahorda yomg‘ir ko‘p yog‘adi.

V. Kuz boshlandi.

2. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari tushirilgan qatorni aniqlang.

A. Men darsga erta keldim.

V. Darsga erta keldim.

D. Men keldim.

3. Quyidagi sxemaga mos gap berilgan qatorni ayting.

A. Sumkamdan yo‘qoldi.

V. Daftirim yo‘qoldi.

D. Sumkadagi daftar.

4. Dildora so‘ziga kesim qo‘shib gap tuzilgan qatorni aniqlang.

A. Dildora allaladi.

V. Dildoraning ovozi.

D. Mehnatkash Dildora.

6. 22-mashq uyga beriladi.

22- mashq. SHe’ni qiroat bilan o‘qing. Bolalar paxtani nimalarga o‘xshatdi?

Insholardan ko‘chirmalar

Barno debdi: “Paxtamiz

Momiq parga o‘xshaydi.”

Ra’no debdi: “Paxtamiz

Xuddi zarga o‘xshaydi.”

Uni oppoq bulutga

Qiyos qilibdi Davron,

Muzqaymoqning o‘zi u,

Debdi hazilkash Omon.

Kimdir “Paxta – non” debdi,

Kim yozibdi “kunduz” deb.

“Tunda Oy terimchi-yu,

Lo‘ppi paxta – yulduz” deb.

Inshosini shundayin

Tugatib Shouzoq:

“Asli paxta qordekmas
Dadamning sohidek oq”.

Abdurahmon Akbar

Matnga reja tuzish:

1. Momiq par.
2. Zar.
3. Bulut.
4. Paxta – non.
5. Paxta – yulduz.

Barnoning gapini ko‘chiring.

So‘roqlar yordamida gapning bosh bo‘laklarini aniqlang.

Tagiga tegishlicha chizing.

Siz paxtani nimaga o‘xshatgingiz keladi?

Bitta gap bilan yozing.

Yozgan gapingizdagi bosh bo‘laklarni aniqlang.

O‘quvchilarga har bir bola va qizning paxta haqidagi fikriga e‘tibor berishlari uqtiriladi. Mashqning bajarilishi tekshirilganda, Barnoning gapini, Ra‘noning gapini va hokazolarning gapini topib o‘qishlari nima uchun o‘sha narsaga o‘xshatganliklari so‘raladi. O‘zlarining o‘xshatishlarini o‘qib berganda, sinf o‘quvchilarining eng yaxshi o‘xshatishlari alohida ta’kidlanadi. Shundan so‘ng bosh bo‘laklar aniqlatiladi.

7. Darsda o‘rganilganlar savol-javob yo‘li bilan umumlashtiriladi.

8. O‘quvchilar reyting ballari bilan rag‘batlantiriladi.

3-§. To‘rtinchi sinf ona tili darslarida “Gapning uyushiq bo‘laklari”

mavzusini o‘tishda reja asosida ish olib borish

MAVZU: Gapning uyushiq bo‘laklari

Darsning maqsadi:

a) gapning uyushiq bo‘laklari haqida tushuncha hosil qilish, fikrni ixcham va tushunarli ifodalash malakasini shakllantirish;

b) muomala odobiga, o‘quv qurollarini asrashga o‘rgatish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: yarim izlanishli muammoli metod.

Darsning jihozi: uyushiq bo‘lakli gaplar yozilgan jadval, turli chizmalar, kartochkalar.

Darsning borishi:

1. Dars misollar yozilgan kartochkalar tarqatib, undan gap bo‘laklarini aniqlatishdan boshlanadi.

2. Gar bo‘laklari yuzasidan suhbat.

O‘quvchilarga doskaga ilingan jadvaldagi quyidagi gaplar o‘qitiladi:

1. Bolaning erkatoyligi va tantiqligi ota–onani tashvishlantiradi.

2. O‘quvchilar darsda o‘qiydi va yozadi.

3. Mard kishi to‘g‘ri va haq gapni gapiradi.

Savol: 1-gapni o‘qing. Gapning kesimini toping (tashvishlantiradi). Gapning egasini toping (erkatoyligi va tantiqligi). Gapda egalar nechta ekan? (2 ta)

2-gapni o‘qib, kesimni toping (o‘qiydi va yozadi). Gapda nechta kesim qatnashgan? (2 ta). Ular qaysi so‘zga bog‘langan? (O‘quvchilar so‘zi – egaga bog‘langan.)

Yuqoridagi 1-gapda bir xil so‘roqqajavob bo‘layotgan 2 ta ega, 2-gapda esa 2 ta kesim qatnashgan. Bular sanash ohangi bilan o‘qilyapti. Bularni biz gapning uyushgan bo‘laklari deb nomlaymiz. Ayting-chi, gapning qaysi bo‘laklari uyushib kelar ekan? (Gapning bosh bo‘laklari – ega va kesim uyushib kelar ekan.)

3-gapdagi bosh bo‘laklarni aniqlang. (Kishi – kim?, ega, gapiradi – nima qiladi? – kesim.)

Ikkinchi darajali bo‘laklarni ayting. (Qanday? kishi – mard kishi, qanday? gap haq va to‘g‘ri gap, ...)

Bir xil so‘roqqajavob bo‘lgan 2-darajali bo‘lakni ayting. (mard, haq va to‘g‘ri.)

Shu so‘zlardan qaysilari bitta so‘zga borib bog‘lanyapti? (to‘g‘ri va haq so‘zlari bitta gapni so‘ziga bog‘langan.)

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari ham bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bitta so‘zga bog‘lansa, uyushib kelgan bo‘ladi. Ular ham gapning uyushiq bo‘laklari deb yuritiladi.

Demak, gapning bosh bo‘laklari ham, ikkinchi darajali bo‘laklari ham uyushib keladi. Gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘ladigan birdan ortiq bir xil ega, kesim yoki ikkinchi darajali bo‘laklar bo‘lishi mumkin. Ular sanash ohangi bilan aytiladi. Ular gapda ketma-ket keladi. Bunday bo‘laklar gapning uyushiq bo‘laklari deb yuritiladi.

3. Darslik bilan ishlash.

34-mashq sharti o‘quvchilarga o‘qitiladi va shartiga ko‘ra mustaqil bajartiriladi.

Mashqqa reja tuzib, shu asosda ishlanadi.

O‘quvchilar 1-gapni o‘qib, gap bo‘laklarini so‘roqlar yordamida aniqlaydilar. (Nima? – go‘zalligi – ega, nima qilur? – bilinur, kimning? go‘zalligi – kishining go‘zalligi – ikkinchi darajali bo‘lak, nimadan? bilinur – tilidan ikkinchi darajali bo‘lak, kimning? tilidan – uning – ikkinchi darajali bo‘lak)

Gapdagi so‘zlarning bog‘lanishini sxemada tasvirlang:

Gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘lgan so‘z bormi? (Yo‘q) Bu gapda uyushiq bo‘laklar qatnashganmi? (Yo‘q)

Ushbu gapning ma’nosini izohlang:

– Kishilarning tili zahardek achchiq bo‘lsa, bu uning yomonligini bildiradi. Kishining tili shirin, mayin bo‘lsa, bu uning yaxshiligini bildiradi.

Shuning uchun odamlarning qandayligi uning tilidan bilinadi, deyilgan hadisda.

2-gapni ichingizda o'qing. Bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlarni toping. (dalada – qaerda?, bog'da – qaerda?) Bularni gapning qanday bo'laklari deb nomlaymiz? (Gapning uyushiq bo'laklari deb nomlaymiz.) Bu gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan? (Gapning 2-darajali bo'laklari uyushib kelgan.)

Gaplarni darslikdan ko'chirib oladilar. Uyushgan bo'laklarning tagiga to'liqlik chiziqli chizadilar.

35-mashq. Mashqning sharti tushuntiriladi. Gaplarni o'quvchilar quyidagi shaklda mustaqil tuzib yozadilar.

Mening daftarim, ruchkam, chizg'ichim, bo'yoq qalamlarim bor. Bir xil so'roqqa (nima?) javob bo'lgan so'zning ega ekanligi, uning uyushib kelganini aytadilar. Tagiga bir to'g'ri chiziqli chizadilar. Bu bilan uyushiq bo'laklar ixcham gap tuzishga yordam berishini bilib oladilar.

35-mashq bajarilgach, darslikdagi qoidani ichda o'qib chiqish topshiriladi.

36-mashq vaqt imkoniyatiga qarab bajartiriladi. Butun sinf o'quvchilari og'zaki yoki yozma tarzda bajarishi ham, oldingi mashqni tez va to'g'ri bajarib bo'lgan o'quvchiga mustaqil (yakka tartibda) bajartirish ham mumkin.

4. Uyga 37-mashq beriladi. Mashq sinfda og'zaki bajariladi. Uyushiq bo'lakli gapga aylantirib tuzgan gaplarini ham yozib kelishlari aytiladi: Bu dunyoda chamanlar, vatanlar ko'r.

5. Darsda o'rganilganlar umumlashtiriladi:

Gap qanday bo'laklardan tuziladi?

Gapda qaysi bo'laklar bir xil so'roqqa javob bo'ladi? Gapning qaysi bo'laklari uyushib kelishi mumkin? Uyushiq bo'laklarning qanday ahamiyati bor?

6. O'quvchilarning reyting ballarini e'lon qilish.

MAVZU: Uyushiq bo'laklarning bog'lanishi

Darsning maqsadi:

a) o'quvchilarning uyushiq bo'lakli gaplarni sanash ohangi bilan o'qishga, uyushiq bo'laklarni bog'lovchi vositalar bilan to'g'ri bog'lashga, yozuvda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olishga o'rgatish;

b) bolalarda axloqiy xislatlarni egallashga intilish uygʻotish, oʻquvchilarda tabiatni sevish, tabiatdagi oʻsimliklar-u hayvonlarga nisbatan ijobiy munosabat va mehr hissini uygʻotish. Ularga gʻamxoʻrlik tuygʻusini singdirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: til materiallarini kuzatish, suhbat metodi.

Darsning jihozlari: uyushiq boʻlakli gaplar yozilgan koʻrgazma.

Darsning borishi.

1. Uyga berilgan 53-mashq topshirigʻiga koʻra, oʻquvchilar tuzib kelgan gaplar oʻqitiladi:

– Uyushiq boʻlaklarni ayting. Ular qanday soʻroqlarga javob boʻlgan?

– Gapda qaysi boʻlaklar uyushib kelgan?

– va soʻzi bilan bogʻlangan uyushiq boʻlaklar orasiga biror tinish belgi qoʻydingizmi? kabi savol-topshiriqlar asosida oʻquvchilarning uyushiq boʻlaklar haqidagi bilimi aniqlanadi.

2. Doskaga yoki kartonga 54-mashqdagi gaplar yozib qoʻyiladi.

Gaplar ustida oʻquvchilar bilan quyidagicha ishlanadi:

Oʻqituvchining vazifasi: Oʻqituvchi oʻquvchilarni izlanishga majbur qiluvchi savollar bilan yangi mavzuni ularning oʻziga bayon qildiradi.

– Gaplarni ohangiga eʼtibor berib oʻqing, uyushiq boʻlaklarni soʻroq berib aniqlang.

– Oʻylang. Uyushiq boʻlaklar orasida kelayotgan soʻzlar qanday vazifa bajaryapti?

– Qaysi soʻzlar uyushiq boʻlaklarni bogʻlasa, vergul ishlatilishini ayting. Vergul qaerga qoʻyiladi?

Oʻquvchining vazifasi (oʻquvchi oldingi darslarda egallagan bilimlarini eslaydi, fikrlaydi va xulosa chiqaradi.)

Ifodali oʻqiydilar:

1) qanday? yozish–aniq, toʻgʻri yozish;

2) qaerda? odobli boʻling–uyda, koʻchada odobli boʻling;

3) men nima qildim? – men ko‘rdim, lekin so‘zlasha olmadim.

4) «Yoritadi, biroq isitmaydi» va, lekin, biroq so‘zlari uyushiq bo‘laklarni bir-biriga bog‘laydi. Lekin, biroq bilan bog‘lansa, ulardan oldin vergul qo‘yiladi, va bilan bog‘lansa, uyushiq bo‘laklar orasiga vergul qo‘yilmaydi.

– Kuzda barglar sarg‘ayadi, to‘kiladi. Bu gapda uyushiq bo‘laklar qanday bog‘landi?

(Bu savolga o‘quvchilar javob bera olmaydilar. O‘qituvchining o‘zi aytib beradi.)

O‘quvchilarga darslikdagi qoida o‘qitiladi.

O‘qituvchi:

– yuqoridagi misollar orqali uyushiq bo‘laklarning qanday bog‘lanishi haqida tushuncha hosil qildingiz. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro ohang yordamida hamda va, ammo, lekin, biroq so‘zlari bilan bog‘lanadi. Uyushiq bo‘laklar va yordamida bog‘lansa, ular orasiga vergul qo‘yilmaydi, ammo, lekin, biroq so‘zlari yordamida bog‘lansa, vergul qo‘yiladi.

3. Darslik bilan ishlash.

55-mashq.

O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linishadi. Har bir guruh 1 ta she’riy parchani ifodali o‘qiydi va yozadi. She’rdagi uyushiq bo‘laklarni topib, qanday bog‘langanini tushuntiradilar. Guruhning o‘zi tanlagan o‘quvchi she’rni doskada husnixat bilan yozib, uyushiq bo‘laklarni bog‘lagan so‘zlarning tinish belgilarini to‘rtburchak ichiga oladi, tushuntirish beradi. Faol qatnashgan guruh rag‘batlantiriladi.

56-mashq.

O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. Matnga sarlavha topadilar. So‘roq yordamida uyushiq bo‘laklarni topadilar.

(Nima qildi? boshladi, lekin charchadi; jirafaga, bo‘riga va tulkiga so‘zlari uyushib kelgan.)

4. Uyga vazifa. O‘quvchilar uyushiq bo‘lakli gaplarni ko‘chirib, bog‘lovchi vositalarning, vergulning ishlatilishini tushuntiradilar.

57-mashq.

Chizmaga mos gaplar tuzish kerakligi tushuntiriladi. Namuna: Nodira tez va ravon o'qiydi.

5. Darsni yakunlashda test yoki mustaqil ishdan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil ish.

Berilgan gaplardagi uyushiq bo'laklarning orasiga va, ammo, lekin so'zlaridan mosini qo'yib yozing.

1. Anvar, Islom – Tohir qushlarga in yasashdi.

2. Ko'chada Lolani ko'rdim, gaplashmadim.

3. Odamlar bilan xushmuomala bo'ling, sergap bo'lmang.

Reja asosida hikoya tuziladi.

Mustaqil ish yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

– 1-gapdagi uyushiq bo'laklarga so'roq bering. Uyushiq bo'laklar qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? (Kim? Anvar, Islom, Tohir. Ot bilan ifodalangan.)

– Uyushiq bo'laklar gapda qanday vazifada kelgan? (ega bo'lib kelgan.)

– Birinchi gapdagi uyushiq bo'laklar orasiga qaysi so'zni qo'ydingiz? (va so'zini qo'ydik.)

– O'ylang, va so'zi qanday vazifani bajaryapti? va so'zi yozilgan o'rinda vergul qo'yiladimi? (va so'zlarni bir-biriga bog'layapti. U yozilgan o'rinda vergul qo'yilmaydi.)

– 2-gapdagi uyushiq bo'laklarga so'roq bering. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini, gapdagi vazifasini aniqlang. (Nima qildim? Ko'rdim, gaplashmadim. Fe'l so'z turkumi bilan ifodalangan. Gapda kesim vazifasida kelgan.)

– Uyushiq bo'laklar orasiga qaysi so'zni qo'ydingiz? (lekin so'zini qo'ydik.)

– Lekin so'zi ham uyushiq bo'laklarni bog'laydimi? Uyushiq bo'laklar orasida lekin so'zi qo'llansa vergul qo'yiladimi yoki qo'yilmaydimi? (lekin so'zi uyushiq bo'laklarni bog'laydi, lekin so'zidan oldin vergul qo'yiladi.)

Test.

1. Ega uyushib kelgan gapni belgilang.
A. Bugun majlisda o'qituvchilar va ota-onalar qatnashdilar.
V. Biz jismoniy tarbiya darsida yugurdik, sakradik.
2. Ammo bilan bog'langan uyushiq bo'lakli gapni belgilang.
A. Akrom o'qidi, ammo yozmadi.
V. Gulzorda oq, qizil, pushti gullar ochilgan.
6. O'quvchilarni rag'batlantirish.

4-§. To'rtinchi sinf ona tili darslarida "Undalma" mavzusini o'tishda reja tuzish metodikasi

MAVZU: Undalma

Darsning maqsadi:

a) undalma haqida tushuncha berish orqali o'quvchilarni undalmali gaplarni ohangiga rioya qilib o'qishga, ularni o'zgalarga to'g'ri murojaat qilishga, o'zgalarning esa o'zlariga qaratilgan fikriga e'tibor bilan qarashga o'rgatish, undalmali gaplarda tinish belgilarini to'g'ri ishlatish ko'nikmasini shakllantirish;

b) o'quvchilarda kamtarlik, muloyim gapirish, shirinsuxanlik, rostgo'ylik fazilatlarini tarbiyalash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat metodi.

Darsning borishi.

1. Dars yangi mavzuni tushuntirish bilan boshlanadi. O'qituvchi doskaga oldindan undalmali gaplar yozib qo'yadi. Bu gaplar darslikdagi mashq matnidan olinishi ham mumkin. Gaplarni o'qituvchi ohangga rioya qilgan holda o'qib, namuna ko'rsatadi. So'ng 1–2 o'quvchiga o'qitadi, qaerda biroz to'xtam (pauza) qilingani o'quvchilardan so'raladi:

1. Bolam, bobong yaratgan bog'lar, bobong ekan tutlar hozir ham yashnab turibdi. 2. O'quvchilar, berilgan topshiriqlarni o'ylab bajaring.

So'ng matn ustida quyidagicha ishlanadi:

O'qituvchining savollari:

1. 1-gapni o'qing. Maqsadga ko'ra turini ayting.

2. So'roqlar yordamida gapning bosh bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing.

3. So'zlovchi kishi fikrini o'zi uchun aytadimi yoki boshqa kishilarga qarata aytadimi?

4. O'ylang, 1-gapda fikr kimga qarata aytilgan? SHu so'zning tagiga chizing. (O'qituvchi yana bir bolam so'ziga urg'u berib, gapni o'qiydi.)

5. Fikr qaratilgan so'z qaysi so'z turkumiga kiradi?

O'quvchining javoblari

1. 1-gap maqsadga ko'ra darak gap. U xabar mazmunini bildiriyapti.

2. Bolam, bobong yaratgan bog'lar, bobong ekan tut hozir ham yashnab turibdi.

3. Boshqalarga qarata aytadi.

4. Fikr bolaga qaratilgan so'z - bolam so'zi.

5. Kim? so'rog'iga javob bo'lyapti, ot so'z turkumiga kiradi.

Ikkinchi gap ham shu tarzda tahlil qilinadi. Unda undov belgisining qo'yilishi buyruq gap ekaniga o'quvchilar diqqati tortiladi.

Fikr qaratilgan shaxsni bildirgan so'zdan so'ng qanday tinish belgisi qo'yilgan? Nima uchun? Bu so'zni nima deyiladi? kabi savollar aytiladi. O'quvchilar ularni nima ekanini bilmaydi, lekin o'ylaydi. Butun diqqatini o'qituvchiga qaratadi.

Ular unga qarata aytilganini bildirgan so'z undalma deyiladi. Undalma undosh ohangi bilan aytiladi. YOzuva undalmadan so'ng vergul yoki undov belgisi qo'yiladi. Bolam, o'quvchilar so'zini tushirib o'qing. Fikr kimga qarashli ekani bilinadimi? O'quvchilar undalmali va undalmasiz gaplarni (O'quvchilar, topshiriqlarni vaqtida bajaring. Berilgan topshiriqlarni vaqtida bajaring) taqqoslaydilar. Ularni o'z so'zlari bilan izohlaydilar,

2. Darslik bilan ishlash.

66-mashqdagi ikkinchi va uchinchi gaplar og'zaki tahlil qilinadi:

Bolajon, sen doim suyuksan.

Bilib qo'y, iqboli buyuksan! (A.Oripov)

Bobojon, bolajon so'zlari undalma ekanini, ulardan so'ng vergul qo'yilganini aytiladi. Oxirgi gap yuzasidan quyidagicha suhbat o'tkaziladi:

– Bolaga kim murojaat qilyapti? (Shoir Abdulla Oripov.)

– U sizga nima deb murojaat qilyapti?

– Gapda ifoda etilgan fikrni tushuntirib bering. (Seni doim ota-onang, do'stlaring, Vataning sevib, ardoqlaydi. Sening kelajaging uchun qayg'uradi, Sening kelgusida tinch va farovon hayot kechirishing uchun bor, kuchini ayamaydi.)

SHuning uchun shoir Abdulla Oripov:

Bolajon, sen doim suyuksan,

Bilib qo'y, iqboli buyuksan, deyapti.

67- mashq. O'qing. Matn qanday gaplardan tuzilgan?

Bir kampirning shaharda yashaydigan o'g'li uyiga keldi.

SHunda onasi sevinib:

- O'g'lim, senga ajoyib ovqatlar tayyorladim. Semizgina g'oz go'shtim bor. SHirin yog'i quymog'im bor. YAna quyuq qaymog'im bor. Ko'ngling qaysi birini xohlasa, shuni oldin beraman, - debdi.

O'g'li onasiga:

- onajon men g'oz go'shtini quymoqqa o'rab, uni qaymoqqa botirib eyishga odatlanganman, - debdi.

Qayum Nosiriydan

Undalma ishtirok etgan gaplarni topib ko'chiring.

Undalma gapning qaysi o'rnida kelgan?

Undalma fikrning qaysi shaxsga qaratilganini bildiradi.

Mashq sharti bir o'quvchiga o'qitiladi. Matnni ichda o'qib, undalmali gapni topish va daftarlariga ko'chirib yozish vazifasi beriladi. Vazifani birinchi bajargan o'quvchi undalmani doskaga yozib, undalmaning tagiga chizadi, fikrning kimga

qarata aytilganini izohlaydi, vergulning qo'yilish sababini tushuntiradi. Undalma gapning qaysi o'rnida kelgani so'raladi. Bolaning onasiga qanday murojaat qilganiga o'quvchilar diqqati qaratiladi.

3. Mustaqil ish. O'quvchilarga oila yoki o'rtoqlaridan biriga murojaat qilib, gap tuzish mustaqil ish qilib beriladi.

4. Uyga vazifa.

68-mashq sinfda og'zaki bajariladi, o'qituvchining o'zi she'riy matnni o'quvchilarga undalmani ta'kidlab o'qib beradi. Bolalar undalmani eshitish orqali aniqlaydilar. Undalma misraning qaysi o'rnida (1-misraning oxirida – Baxtiyor, 2-misraning oxirida jon bolam, 3-misrada o'rtada – aya) kelayotganini aytadilar.

Uyda o'quvchilarga 1-to'rtlikni ko'chirib, undalmaning tagiga chizib kelish topshirig'i beriladi.

5. Dars «Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?» savoliga javob olish bilan yakunlanadi.

6. O'quvchilarning reyting ballari e'lon qilinadi.

4-§. To'rtinchi sinf ona tili darslarida o'qish darslari materiallari bilan ishlashda reja tuzishga o'rgatish yo'llari

To'rtinchi sinf ona tili darslarida reja tuzishga o'rgatish jarayonida o'qish darslarida egallangan bilimlarga suyanilishi ham yaxshi natija beradi. Masalan, to'rtinchi sinf ona tili darsida uchinchi sinf o'qish kitobida o'tilgan Zahriddin Muhammad Bobur hayotiga oid "Asotirlar va rivoyatlar"dan olingan "Bobur va kabutar" matnini esda saqlaganlarini tekshirish maqsadida o'tgan yili o'tilgan mavzu eslanib, rejasi bir necha yo'l bilan tuzdiriladi hamda matnni reja asosida to'liq bayon qilish vazifasi uyga topshiriq etib topshiriladi. Shu matn asosida ona tili darslarida reja tuzdirilib, fanlararo bog'lanishga erishish yaxshi natija berishi tajribada sinovdan o'tgan.

Rivoyat matni o'quvchilarga eslatiladi. Chunki sinfdagi barcha o'quvchilar matnni yodlarida to'liq saqlamagan bo'lishlari mumkin. Ikki-uch o'quvchiga asar

qayta hikoyalatilgach, matnga sarlavha toptiriladi. O‘quvchilar o‘zlarining “Ziyrak bola”, “Dono javob”, “Aql – inson bezagi” kabi sarlavhalarini taklif etadilar. Eng ma’qul sarlavhani albatta, o‘qituvchi tanlagani maqsadga muvofiqdir. Bolalar bu ish turini juda xursandlik bilan kutib oladilar, negaki bu yoshdagi bolalarda ochiq maydonda jang – musobaqa olib borish juda yoqadi-da.

Shundan so‘ng bolalar bilimini tartibga solish maqsadida reja tuzdirib ko‘rish kerak.

Reja:

1. Kabutarning xushxabar olib kelishi.
2. Kabutar tashrifiga ayonlarning munosabati.
3. Boburning dono firki.
4. Hamma lol-u xayron.

O‘quvchilar yuqordagi reja asosida asarni qayta bayon qiladilar. Qayta bayonda o‘quvchilar hikoyani tartib bilan olib boradilar.

Matn o‘zlashtirilgach bolalardan Mirzo Boburning hayoti va faoliyatiga doir tarixiy ma’lumotlar asosida suhbat tashkillanadi.

Zahriddin Muhammad Bobur buyuk temuriylardandir. U to‘qqiz yoshidayoq Andijon taxtining podshosi darajasini egalladi. Ammo shafqatsiz hayot uning boshiga ne kunlarni solmadi. U davlat tinchligi, yurt farovonligi uchun bor kuchini ayamay janglarda ishtirok etdi. Vatandan ayriliq, do‘st deb ishontirganlarning xiyonati uning boshiga qanchalar azoblarni solmadi, ammo bularning bariga Bobur sabr-u bardosh bilan chidadi. O‘z yurtidan ayrilib bir umr hind yurtida sargardonlik uning buyuk orzularini amalga oshirishga to‘siq bo‘ldi. Bobur shunga qaramay buyuk ishlar qilishga erishdi: “Devon”, “Muxtasar”, “Mubayyin”, “Boburnoma” singari jahon adabiyoti durdonalarini etishtirdi. Boburning kelajagi Alisher Navoiyni ham juda qiziqtirgan, shuning uchun buyuk Navoiy Boburshohga maktub yo‘llab uning ishlariga oq yo‘l tilagan.

3- sinf “O‘qish kitobi”⁴ “Go‘zal fazilat – inson husni” bo‘limi (179-bet)da Pirimqul Qodirovning “Bobur va Humoyun” asari berilgan.

Bobur dovyurak, epchil, kuchli, o‘ta idrokli inson bo‘lgan. U ona yurti Andijonni, oilasini qadrlagan, farzandlarini sevgan. Farzand uchun o‘z jonini berishga tayyor turgan otadir.

Bir kuni Humoyun betob bo‘lib qoldi. U tuni bo‘yi alahlab behush yotdi.

Saroy tabiblari bu og‘ir dardga hech bir davo topolmadilar. Humoyunning onasi Mohimbegim yum-yum yig‘laydi. Bobur o‘rtanadi. Og‘ir paytlarda Boburga suyangan, undan yordam olishga o‘rgangan odamlar hozir ham biron chora topishni undan kutadilar. Lekin hozir Bobur ham chorasizlikdan qiynalardi.

Bobur o‘ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o‘tdi, Humoyunning to‘shagi yoniga keldi.

– Humoyun, jigarbandim. Sening betoqatligingga men toqat keltiray. Sen shu og‘ir dardingni xudo sendan olib, menga bersin...

Gulbadanbегinning yozishicha, o‘sha kuniyoq Humoyunning ahvoli yaxshilana boshlabdi. Bobur esa mazasi qochib, yotib qolibdi.

Bu tarixiy voqea Bobur hayotining eng og‘ir damlari bo‘lsa-da, ammo Boburning kasallikni ko‘tarishi tufayli o‘g‘lining malham topib tuzalishi Bobur uchun dunyodagi tengsiz ganjdir. Bu voqea asosida otaning farzandga bo‘lgan mehr-u muhabbati yorqin ochiladi.

Matn mazmuni o‘quvchilarga tanishtirilgach, unga quyidagicha reja tuzish mumkin:

Reja:

1. Humoyun betob bo‘lib behush yotib qoldi.
2. Ota-ona qattiq iztirobda qoldi.
3. Boburning o‘g‘li dardini ko‘tarishi.

Bolalar bu reja asosida matnni ancha engil qayta hikoyalaydilar.

⁴ Umarova M., Hakimova Sh. O‘qish kitobi. Uchinchi sinf uchun darslik. Toshkent: Cho‘lpon – 2005.

Bir kuni Zahriddin Muhammad Boburning katta o'g'li Humoyun qattiq kasal bo'lib qoldi. Boburning o'g'li tuni bilan behush holda alahsirab chiqdi.

Tabiblari Humoyunning bu og'ir dardiga hech bir davo topolmadilar. Uning onasi Mohimbegim yum-yum yig'laydi. Bobur o'g'lining holidan qattiq qayg'urib, tinmay o'rtanadi. Humoyun og'ir paytlarida doimo Boburga suyangan, undan yordam olishga o'rgangan edi. Odamlar hozir ham biron chora topishni undan kutadilar. Lekin hozir Bobur ham chorasizlikdan qiynalardi.

Bobur o'ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan Humoyunning yoniga o'tdi, to'shagi yoniga keldi.

Bobur mirzo o'g'li Humoyunning bu holiga nihoyat chiday olmay, xudodan o'g'lining dardini olib, o'ziga berishini qattiq so'rabdi. Bu oddiy so'or emas, yurak-yurakdan otaning zorlanishi edi.

Mirzo Boburning qizi Gulbadanbegimning yozishicha, o'sha kuniyoq Humoyunning ahvoli yaxshi bo'la boshlagan. Boburning esa mazasi qochib, yotib qolgan.

O'quvchilarga reja asosida qayta hikoya tanishtirilgach, unga quyidagicha murakkab reja tuzish va u asosida hikoyalatish maqsadga muvofiqdir.

Reja:

1. Humoyun betob.
2. Ota-ona iztirobda.
3. Dardni ko'tarish.

Bu kabi turli-tuman reja asosida qayta hikoyalash bolalarning og'zaki qayta bayonlarini rivojlantiradi, zerikishlarining oldi olinadi. Ular bu turli-tuman ish turlari orqali ishlash mobaynida ijodiylikni ham o'rganadilar.

Xulosa. To‘rtinchi sinf ona tili darslarida reja tuzishga o‘rgatishning ma’naviy-axloqiy xususiyatlari.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar inson omiliga qaratilayotgan bugungi kunda unga qarshi ish olib borayotgan insonlar o‘zlarining yot g‘oyalari bilan ijtimoiy hayotga tahdid solib turadi.

Bunday g‘oyaviy tahdidlarni payqash, sezish biroz qiyin ish. Ammo inson o‘z ziyrakligini yo‘qotmay ogoh turishi kerak. Yot g‘oyalarning asl mohiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular yoshlarni “ommaviy madaniyat”sizlik, tubanlik, manqurtlik botqog‘iga asta-sekinlik bilan cho‘ktirayotganini ko‘ramiz.

Bunday ma’naviy tahdidlarga qarshi bizning yoshlar ham g‘oyaga qarshi g‘oya bilan javob berish lozim. Buning uchun esa yoshlar yuksak ma’naviyat sohibi bo‘lishlari kerak. Yurtboshimiz I.A.Karimov “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida ma’naviyatga quyidagicha fikrlar bildirilgan: “**Ma’naviyat** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”⁵.

Respublikamiz ta’lim tizimida nafaqat shaklan, balki mazmunan isloh qilish va taraqqiyot bosqichini amalga oshirish, ta’limning izchillik va uzviyligini ta’minlash, ta’lim turlarida o‘qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish, darslarda ilg‘or pedagogik va zamonaviy vositalarni keng qo‘llash kabi jiddiy masalalarni hal qilishiga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’lim tizimini jahon miqiyosida obro‘-e’tiborini yanada oshirishda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida»gi singari muhim hujjatlarda belgilangan chora-tadbir va ko‘rsatmalarning xizmati katta bo‘lmoqda. Mazkur hujjatlarda oliy o‘quv yurtini bitiruvchi bakalavrlar oldiga katta talablar qo‘yilmoqda hamda komil inson bo‘lib etishishlari uchun shart-sharoitlar

⁵ Karimov I.A. Yusak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.19.

yaratilmoqda. Jumladan, bo'lg'usi mutaxassislarning keng dunyoqarashga, chuqur bilimga, talab darajasidagi malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi alohida e'tirof etilmoqda. Ma'lumotli mutaxassislarning og'zaki va yozma nutqiy tayyorgarligiga ham e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, ona tili va adabiyot ta'limi oldiga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Insonning moddiy dunyoni bilishi, uning tafakkuri va tili orqali yuzaga keladi. Tafakkur tashqi olamning kishi miyasida aks etishi bo'lsa, til tafakkurni shaklga solib, so'zlar yordamida undagi fikrni voqe qiladi.

Mustaqilligimiz qurilishning dongdor kishilari, shonli Vatanimiz fani va san'atining mashhur namoyondalari va boshqalar hayotidan olingan materiallar va biografik ocherklar, o'zbek kishilarining qahramonona mehnati, botirligi, jasurligi va fidokorligini o'zida aks ettirgan badiiy asar va ilmiy ommabop maqolalar o'quvchilarda bayon yozishga zavq-shavq uyg'otadi. Ma'lumki, tasviriy xarakterdagi matnlar rivoya turidagi matnlarga nisbatan qiyinroqdir. I-IVsinflar uchun matnlar tanlashda bu qiyinchiliklarni, bu matnlarning bolalar yoshiga mos yoki mos emasligini, g'oyaviy, mavzutik mazmunini, hajmini, leksik tuzilishini, janr xususiyatini nazarga olish kerak. To'rtinchi sinf uchun tanlanadigan matnlar syujetli hikoyalar yoki badiiy asardan olingan kichik parchalar bo'lishi ma'quldir.

Jamiyatning taraqqiyoti sog'lom aqlga muvofiq yo'nalishga tushuvi bilan unda inson omilining salmog'i inson omilining oshuvi esa bu jamiyatda ma'naviy qadriyatlarga e'tibor kuchayishiga olib keladi. Ma'naviy qadriyatlar ustivor bo'lgan jamiyat chin taraqqiyot yo'liga tushgan hisoblanadi. Mustaqillikka erishgan mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlarga e'tiborning benihoya ortib borishi shu ma'noda tabiiy holdir. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning tub o'zgarishlarga yuz tutishi jamiyat a'zolarining ongi keskin evrilishlar bo'lishiga olib keldi. Milliy tafakkurdagi yangilanish ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga da'vat etilgan muassasalar ishida ham tub burilishlar bo'lishini taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'limda boshqa ish turlari qatori reja asosida matnni qayta hikoyalashga o'rgatish ish turidan foydalanish ham ta'limiy-tarbiyada alohida o'rniga ega. Bola kichik maktab yoshdanoq til hodisalariga sezgirlik bilan yondashadi, u o'rgan bilimlarini amaliy hayotga tatbiq qiladi, albatta, bunda o'quvchilarning reja asosida matnni qayta hikoyalashga o'rgatishning ham o'рни beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashrapova T., Odilov I. Ona tili metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984.
2. Azizova A. va boshq. Uchinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
3. Boshlang'ich sinf davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim, 2005. – №5. – B.5-33.
4. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi. Toshkent, 2008.
5. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
6. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 192 b.
7. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Xalq so'zi. 2011- yil 22- yanvar, №16 (5183)
8. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
11. Mirzayev A. Diktant metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1979.
12. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 216 b.
13. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. O'ninchi nashri. Toshkent: Cho'lpon, 2010. – 128 b.
14. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

15. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992.
16. Umarova M. Bayonlar to'plami. Toshkent: O'qituvchi, 1997.
17. Vazirlar Mahkamasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlari. Xalq ta'limi. 1997. – №1.
18. Xudoyberganova M. va boshqalar. Ikkinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
19. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyaasoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
20. Yusupov M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent: O'qituvchi, 1990.
21. Yusupova M. Diktantlar to'plami. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
22. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
23. G'ulomov A. 4- sinfda ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari. Toshkent: O'qituvchi, 1980.
24. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
25. G'ulomov M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
26. G'ulomova H. va boshqalar. Birinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2009.
27. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova U. To'rtinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2009.